

ОБРАЗОВАНИЕ,

**НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ
В МИРЕ**

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 59
Часть-11_Декабрь -2024*

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Декабрь - 2024 год

ЧАСТЬ - 11



Google
Scholar

ICI JOURNALS
MASTER LIST

HUQUQIY MADANIYAT- JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI

*Andijon davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi*

Xayrullo Ikromov

*Andijon davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti
Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi
302-guruh talabasi **Ochilov Ibrohim***

Annotatsiya: Mazkur maqolada huquqiy madaniyatning mohiyati, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Huquqiy madaniyat fuqarolarning huquq va burchlarini chuqur anglashiga, qonunlarga hurmat bilan yondashishga xizmat qiluvchi asosiy omil sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada huquqiy ong, qonun ustuvorligi va adolat tamoyillari bilan bog'liq masalalar tahlil etiladi. Huquqiy madaniyatni rivojlantirish yo'nalishlari sifatida ta'lim tizimini takomillashtirish, huquqiy targ'ibot va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish taklif etiladi.

Abstract: This article describes the essence of legal culture, its role and importance in the development of society. Legal culture is considered as the main factor that serves to deeply understand the rights and duties of citizens, respect the laws. The article also analyzes issues related to legal consciousness, the rule of law and the principles of justice. Improvement of the educational system, legal promotion and the use of modern technologies are suggested as directions for the development of legal culture.

Аннотация: В данной статье описывается сущность правовой культуры, ее роль и значение в развитии общества. Правовая культура рассматривается как главный фактор, служащий глубокому пониманию прав и обязанностей граждан, уважению законов. В статье также анализируются вопросы, связанные с правосознанием, верховенством права и принципами справедливости. В качестве направлений развития правовой культуры предлагается совершенствование системы образования, правовая пропаганда и использование современных технологий.

Kalit so'zlar: huquqiy madaniyat, huquqiy ong, qonun ustuvorligi, adolat, huquqiy bilimlar, fuqarolik jamiyati, huquqiy faoliyat, qonunchilik, ijtimoiy barqarorlik, huquqiy targ'ibot, ta'lim tizimi, raqamli ta'lim, shaffoflik, korrupsiya, inson huquqlari, jamiyat taraqqiyoti.

Keywords: legal culture, legal awareness, rule of law, justice, legal knowledge, civil society, legal activity, legislation, social stability, legal advocacy, education system, digital education, transparency, corruption, human rights, community development

Ключевые слова: правовая культура, правосознание, верховенство права, правосудие, правовые знания, гражданское общество, правовая деятельность, законодательство, социальная стабильность, правовая защита, система образования, цифровое образование, прозрачность, коррупция, права человека, развитие общества.

Kirish. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda huquqiy madaniyat muhim ahamiyatga ega. Chunki huquqiy madaniyat fuqarolarning huquq va burchlarini chuqur anglashiga, qonunlarga hurmat bilan yondashishiga, shuningdek, ijtimoiy hayotda adolat va tenglikni qaror toptirishga yordam beradi. Huquqiy madaniyat nafaqat shaxsiy farovonlikni ta'minlaydi, balki butun jamiyatni barqaror rivojlantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Huquqiy madaniyat – bu shunchaki qonunlarni bilish yoki ularga rioya qilish emas, balki huquqiy tafakkur va ongning shakllanganligini ko'rsatadigan keng tushunchadir. Huquqiy madaniyatning poydevori – bu huquqiy ong. Huquqiy ong shaxsning o'z huquqlarini bilishi, qonunlarni tushunishi va ularni hurmat qilishida namoyon bo'ladi. Huquqiy ong ikki darajada faoliyat ko'rsatadi:

Oddiy huquqiy ong: Odamlarning kundalik hayotida huquqiy muammolarni hal etish uchun zarur bo'lgan bilimlar.

2. Nazoratchi huquqiy ong: Bu yanada yuqori daraja bo'lib, jamiyatdagi huquqiy tartib va qonun ustuvorligini tan olishni o'z ichiga oladi.

Huquqiy madaniyat faqat qonunlarga rioya qilishni emas, balki insoniy qadriyatlarni ham aks ettiradi. U jamiyatning ma'naviy qiyofasini ifodalashda muhim omil hisoblanadi. Huquqiy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari — huquqiy bilimlar, huquqqa hurmat va huquqiy faoliyat — fuqarolarning qonunlarni o'rganishi, ular bilan bog'liq qarorlar qabul qilishi va qonunlarni hurmat qilishlarini ta'minlaydi. Bunday jamiyatda, qonun ustuvorligi barqaror bo'lib, fuqarolarning ijtimoiy va iqtisodiy farovonligi oshadi. Shuningdek, huquqiy madaniyat jamiyatning ma'naviy qiyofasini ham ifodalaydi, inson huquqlariga hurmat va adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Huquqiy madaniyat – bu insonlarning huquqiy bilimlari, huquqqa nisbatan munosabati hamda huquqiy faoliyati orqali ifodalanadigan hodisa. U quyidagi asosiy elementlardan tashkil topadi:

Huquqiy bilimlar – fuqarolarning o‘z huquq va majburiyatlarini bilishi. Bu bilimlar fuqarolarga qonuniy tartiblarni tushunish va ularga amal qilish imkonini beradi.

Huquqqa hurmat – qonunlarga rioya qilish, ularni buzmaslik, shuningdek, boshqa shaxslarning huquqlarini hurmat qilish.

huquqiy faoliyat – qonuniy me‘yorlarga amal qilish, huquqiy nizolarni adolatli hal etishga harakat qilish.

Huquqiy madaniyat yuqori bo‘lgan jamiyatlarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi:

Barqarorlik va xavfsizlik: Qonun ustuvor bo‘lgan jamiyatda tartib va xavfsizlik ta‘minlanadi. Bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun muhim zamin yaratadi.

Fuqarolik jamiyati rivoji: Huquqiy bilimlar fuqarolarni faol bo‘lishga undaydi, bu esa ijtimoiy muammolarni hal qilishda o‘zaro hamkorlikni kuchaytiradi.

Adolat va tenglikni ta‘minlash: Huquqiy madaniyat qonunlarning barcha uchun teng ishlashini ta‘minlab, jamiyatda adolatni qaror toptiradi.

Huquqiy madaniyatni rivojlantirishda quyidagi chora-tadbirlar muhim:

1. Ta‘lim tizimini takomillashtirish: Maktab va oliy o‘quv yurtlarida huquqiy bilimlarni o‘rgatish, maxsus dasturlarni joriy qilish.

2. Huquqiy targ‘ibot: Ommaviy axborot vositalari orqali huquqiy madaniyatni targ‘ib qilish, aholiga qonunchilikni tushuntirish.

3. Qonunchilikni takomillashtirish: Qonunlar oddiy va tushunarli bo‘lishi kerak. Bu fuqarolarga ularni anglash va ularga rioya qilishni osonlashtiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, huquqiy madaniyat – jamiyatning adolatli, barqaror va rivojlangan bo‘lishi uchun muhim omil hisoblanadi. Uning rivojlanishi fuqarolarni huquqiy bilimi, ongli munosabati va qonunlarga hurmat ko‘rsatishi orqali jamiyatni yanada yaxshilashga xizmat qiladi. Huquqiy madaniyatni shakllantirish har bir fuqaroning mas‘uliyati bo‘lib, u nafaqat shaxsiy, balki jamiyatning umumiy farovonligini ta‘minlaydi. Huquqiy madaniyat – bu jamiyatning umumiy madaniyati va ma‘naviyati darajasini ko‘rsatadigan muhim ko‘rsatkich. Uning rivojlanishi nafaqat qonun ustuvorligini ta‘minlaydi, balki inson huquqlarini himoya qilish va adolatni qaror toptirishda ham muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun har bir fuqaro huquqiy bilimlarini oshirishga intilishi va qonunlarga hurmat bilan yondashishi zarur. Huquqiy madaniyat taraqqiyotga xizmat qiladigan kuch bo‘lib, u orqali jamiyatimiz yanada rivojlanishi va gullab-yashnashi ta‘minlanadi. Huquqiy madaniyat – bu jamiyat rivojlanishining tamal toshi. Huquqiy bilimlar, ong va amaliyot uyg‘unligi orqali jamiyatimizda adolat va barqarorlikni ta‘minlashimiz mumkin. Huquqiy

madaniyatni rivojlantirish har birimizning maqsadimiz bo'lmog'i lozim, chunki taraqqiyotga erishish yo'lidagi asosiy kalit – bu qonun ustuvorligini ta'minlashdir. Huquqiy madaniyat nafaqat shaxsiy huquq va burchlarni anglash, balki ijtimoiy munosabatlarning qonuniy asosda shakllanishiga xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, jamiyatda tartib, adolat va xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradi. Huquqiy madaniyatni rivojlantirish, fuqarolarda qonunlarga hurmat va ongli munosabatni shakllantirish orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va huquqiy tenglikni ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 2023-yil
2. Inson huquqlari umujahon deklaratsiyasi 1948-yil 10-dekabr.
3. Davlat huquq va nazariyasi 2019-y
4. A.Tadjibayev, K.R.Ramazonova “ Inson huquqlari” o'quv qo'llanmasi
5. Raxmonqulov H.R Fuqarolik huquqi va muammolari:Darslik, I-qism.

КОМПЬУТЕР TARMOQLARIDA ZARARKUNANDA TRAFIKNI FILTRLASH

Norbutayev Xurshid Alijon o'g'li
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
123norbutayev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zararkunanda trafikni aniqlash va filtrlash usullari, shuningdek, ularning tarmoq xavfsizligini ta'minlashdagi roli ko'rib chiqiladi. Zararkunanda trafik yani kompyuter tarmoqlarida xavfsizlikka tahdid soluvchi va foydalanuvchilarning ma'lumotlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan trafikdir.

Kalit so'zlar: Tarmoq xavfsizligi, tarmoqlararo ekranlar, ips ,hips, trafikni filtrlash,
IP filtrlash,geografik filtrlash,so'rov chastotasi orqali filtrlash.

ФИЛЬТРАЦИЯ ВРЕДОНОСНОГО ТРАФИКА В КОМПЬЮТЕРНЫХ СЕТЯХ

Норбутаев Хуршид Алижан оглы
Ташкентский университет информационных технологий
123norbutayev@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы обнаружения и фильтрации вредоносного трафика, а также их роль в обеспечении безопасности сети. Вредоносный трафик – это трафик, который угрожает безопасности компьютерных сетей и может нанести ущерб данным пользователей.

Ключевые слова: сетевая безопасность, межсетевые экраны, IPS ,HIPS, фильтрация трафика, IP-фильтрация, географическая фильтрация, фильтрация по частоте запросов.

FILTERING PEST TRAFFIC IN COMPUTER NETWORKS

Norbutayev Khurshid Alijan Ogli
Tashkent University of Information Technology
123norbutayev@gmail.com


Abstract: The following article analyzes methods for detecting and filtering pest traffic, as well as their role in ensuring network security. Pest traffic is traffic that threatens security in computer networks and can damage user data.

Hozirgi zamonaviy raqamlashgan internet olamida biz qabul qilayotgan har bir ma'lumot bizning foydamizga yoki bizga qarshi ishlashi mumkin. Shu boisdan hozirda kompyuter tarmoqlaridagi trafikni filtrlash undagi zararkunanda trafikni ajratib olish ka'bi dolzarb bo'lgan muammo oldimizda turibdi. Tarmoq xavfsizligi bu tarmoqqa bo'ladigan xujumlar va suqulib kirishlarni monitoringlash, bartaraf etish uchun mo'ljallangan xavfsizlik siyosati, taktikasi va instrumentlarini tavsiflovchi soha hisoblanadi. U hujumlarni aniqlab, buzg'unchilarning hujumlarini bartaraf etish, tarmoqdagi faoliyatni aniqlay oladi va tarmoq o'tkazuvchanligi va blokirovkadan foydalanadi[2]. Bunday holatda yechimlardan biri xujumlarni bartarat etish tizimidan (IPS – Intrusion Prevention System) foydalanish, IPS – kirish trafiklarini tahlil qilish orqali buzg'unchilarning mavjudligini aniqlashga imkon beradigan himoya vositasi, bu vositalar zararkunanda trafiklar to'plamiga ega bo'lgan holda, kirish trafiklar paketi namunalarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasidagi zararkunanda trafiklar bilan taqqoslash orqali tahlil qilinadi. Bunda agar tarmoq paketlari ma'lumotlar bazasidagi qoidalarga mos kelsa tarmoqda buzg'unchilik holati ogohlantirish yuboradi [1]. Tarmoqdagi zararli trafikni aniqlash masalasini o'rganish, birinchi navbatda, anomal hodisalarning asosiy manbalarini aniqlashni talab qiladi. Har qanday korporativ tarmoq infratuzilmasi mustaqil ishlaydigan yoki bir-biri bilan o'zaro ta'sir qiluvchi ko'plab komponentlarni o'z ichiga oladi va bu komponentlarning har biri tarmoq anomaliyalarining potensial manbai hisoblanadi. Tarmoq trafigi zararli harakatlarini barcha mumkin bo'lgan birlamchi manbalarining to'liq ro'yxati murakkab vazifadir va shuning uchun korporativ tarmoqning ichki segmentidagi potensial zararli trafik manbalarining umumlashtirilgan tasnifi ishlab chiqilgan.

Tarmoqlararo ekran (TE) – *brandmauer* yoki *firewall* sistemasi deb ham ataluvchi tarmoqlararo himoyaning ixtisoslashtirilgan kompleksi. Tarmoqlararo ekran umumiy tarmoqni ikki yoki undan ko'p qismlarga ajratish va ma'lumot paketlarini chegara orqali umumiy tarmoqning bir qismidan ikkinchisiga o'tish shartlarini belgilovchi qoidalar to'plamini amalga oshirish imkonini beradi. Odatda, bu chegara korxonaning korporativ (lokal) tarmog'i va Internet global tarmoq orasida o'tkaziladi. Tarmoqlararo ekranlar garchi korxona lokal tarmog'i ulangan korporativ intratarmog'idan qilinuvchi hujumlardan himoyalashda ishlatilishlari mumkin bo'lsada, odatda ular korxona ichki tarmog'ini Internet global tarmoqdan suqulib kirishdan himoyalaydi. Aksariyat tijorat tashkilotlari

uchun tarmoqlararo ekranlarning o'rnatilishi ichki tarmoq xavfsizligini ta'minlashning zaruriy sharti hisoblanadi.

Ruxsat etilmagan tarmoqlararo trafikdan foydalanishga qarshi ta'sir ko'rsatish uchun tarmoqlararo ekran ichki tarmoq hisoblanuvchi tashkilot tarmog'i va tashqi tarmoq orasida joylanishi lozim (1-rasm).



1-rasm Tarmoqlararo ekrannni ulash sxemasi.

Ta'kidlash lozimki, tarmoqlararo ekran filtrlash funksiyasini vositachi-dastur ishtirokisiz amalga oshirib, tashqi va ichki tarmoq orasida o'zaro aloqaning shaffofligini ta'minlashi mumkin. Ko'pgina tarmoqlararo ekranlar statistikani qaydlovchi, yig'uvchi va taxlillovchi quvvatli tizimga ega. Mijoz va server adresi, foydalanuvchilar identifikatori, seans vaqtlari, ulanish vaqtlari, uzatilgan va qabul qilingan ma'lumotlar soni, ma'mur va foydalanuvchilar harakatlari bo'yicha hisob olib borilishi mumkin. Hisob tizimlari statistikani taxlillashga imkon beradi va ma'murlarga batafsil hisobotlarni taqdim etadi. Tarmoqlararo ekranlar maxsus protokollardan foydalanib, ma'lum xodisalar to'g'risida real vaqt rejimida masofadan xabar berishni bajarishi mumkin[3].

Anomaly-based Detection bu ayni damda ishlab turgan va sozlangan tizimda tarmoq trafiginı kuzatib turib, vaqti-vaqti bilan uni tahlil qiladi va agar oldingi misol bilan taqqoslaganda g'ayritabiiy statistika yuzaga kelsa, u ushbu g'ayritabiiy vaziyatga aralashadi. Misol uchun, biz uni ichkaridan tashqariga g'ayritabiiy tarzda yaratilgan va ma'lumotlarni tashqariga chiqarishga urinayotgan xaker tomonidan yaratilgan trafik misolida ko'rishimiz mumkin. Bu yerda, standart baza davom etar ekan, ichkaridan tashqariga yoki tashqaridan ichkariga trafik ma'lum vaqt oralig'ida g'ayritabiiy ravishda o'zgarishi yoki hujum sodir etuvchisi e'tiborga tushmaslik uchun ma'lum bir manbadan muntazam buyruqlar bilan ma'lumotlarni turli nuqtalarga yubirishga harakat qilishi mumkin. Bu kabi holatlar IPS dagi sensorlar tomonidan aniqlanishi mumkin.

HIPS (Host-based Intrusion Prevention System) xostga asoslangan IPS tizimi bitta tizim ichidagi serverlar (Jismoniy Xost yoki VM Xost) kabi mahsulotlarda internet-trafikdan kelib chiqishi mumkin bo'lgan viruslar va tahdidlarga qarshi himoya mexanizmini yaratadi. U xostda 3-sathdan 7-sathgacha, yani Network sathdan Application sathgacha xavfsizlik mexanizmini ta'minlaydi. HIPS o'rnatilgan xost muntazam ravishda voqealarni, ma'lumotlarni uzatishni, unda ishlaydigan ilovalar xizmatlarini va xost xususiyatlarini tekshiradi. HIPS tizimdagi trafiklar, ilova va log jurnallari va fayl tizimi o'zgarishlari ma'lumotlar bazasini tahlil qiladi va o'zgarishlar va ruxsatsiz kirish ustidan nazorat qiladi. HIPS ma'lumotlar bazasidagi har bir obyektни solishtirar ekan, u obyekt xususiyatlaridan foydalangan holda o'z-o'zini nazorat qiladi va kontentdagi o'zgarishlarni muntazam ravishda tekshirib, kerakli choralarini ko'radi. HIPS shuningdek, xotiraga biron bir o'zgartirish kiritilgan yoki yo'qligini bilish uchun xotira bo'limlarini tekshiradi. Agar HIPS ning afzalliklari haqida gapiradigan bo'lsak, u korporativ va davlat muassasalariga topshiriladigan tizimlarda taqdim etgan xavfsizlik siyosati bilan xavfsizlik darajasini yanada yuqori darajaga olib chiqadi. Xostda ishlash orqali u lokal tarmoqdan kelishi mumkin zararkunanda trafik va tahdidlarni ehtimoliy hujumlarini oldini oladi[4].

Trafikni filtrlash sizga zararli so'rovlarni filtrlash imkonini beradi va shu bilan birga serverni qonuniy foydalanuvchilar uchun mavjud bo'ladi. Trafikni filtrlashning bir necha usullari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga va afzalliklarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, DDoS hujumlaridan samarali himoya qilish odatda bir vaqtning o'zida bir nechta filtrlash usullaridan foydalanishni talab qiladi.

IP manzillar bo'yicha filtrlash - bu usul shubhali yoki zararli so'rovlar keladigan IP manzillarni bloklashni o'z ichiga oladi. IP bloklari ro'yxatlari statik yoki dinamik bo'lishi mumkin. Statik ro'yxatlar qo'lda yaratiladi va muntazam yangilashni talab qiladi, dinamik ro'yxatlar esa trafik tahlili asosida avtomatik ravishda yangilanishi mumkin. IP-manzilni filtrlash eng oddiy va samarali xavfsizlik usullaridan biridir, ammo uning cheklovlari mavjud. Masalan, hujumchi o'zlarining haqiqiy IP manzillarini yashirish uchun proksi-serverlar yoki VPN-lardan foydalanishlari mumkin. Bu jarayonda hujumchi boshqa ip manzil orqali tizimga kirib olishi hamda zararkunanda trafikni serverga yuklashi mumkin.

Geografik joylashuv bo'yicha filtrlash muayyan mintaqalar yoki mamlakatlardan kelgan zararkunanda trafikni blokirovka qilish imkonini beradi. Hujum ma'lum bir geografik mintaqadan kelayotgan zararkunanda trafik mavjud bulsa, bu usul foydalidir. Misol uchun, agar sizning kompaniyangiz ma'lum bir mamlakatda biznes yuritmasa, siz ushbu mamlakatdan barcha trafikni bloklashingiz mumkin. Biroq, bu usul ham o'z cheklovlariga ega. Hujumchilar hujumni amalga

oshirish uchun boshqa mamlakatlardagi serverlardan foydalanishi mumkin, buning natijasida geografik filtrlashni samarasiz qiladi.

So'rov chastotasi bo'yicha filtrlash ma'lum vaqt oralig'ida bir manbadan so'rovlar sonini cheklash imkonini beradi yani tizimdagi trafikni bir saytga yoki so'rovga bo'lgan murojatlar soniga qarab cheklaydi. Buning natijasida hujumchining yubor- ishi mumkin bo'lgan ko'p sonli so'rovlarini bloklaydi. Bu server yuklanishining oldini olishga yordam beradi. Misol uchun, agar bitta IP manzil qisqa vaqt ichida juda ko'p so'rov yuborayotgan bo'lsa, u vaqtincha bloklanishi mumkin. Bu usul, ayniqsa, tajovuzkorlar serverni juda ko'p so'rovlar bilan yuklashga harakat qiladigan zararkunanda trafik hujumlariga qarshi samarali usul hisoblanadi[5].

Xulosa

Zararkunada tarmoq trafikni aniqlash muammosini o'rganish va uning usullari yo'llari har qanday axborot-kommunikatsiya tarmog'ining barqaror va xavfsiz ishlashini tashkil etishning muhim elementidir. Zararkunanda tarmoq trafigini tavsiflangan manbalari va sabablari, shuningdek ularni aniqlashning mavjud usullarini tahlil qilish tarmoqdagi zararli trafikni aniqlash nazariyasi bo'yicha mavjud tadqiqotlarni to'ldirishga imkon beradi.

Trafikni filtrlash DDoS hujumlaridan himoya qilishning muhim elementidir. IP-manzil, geo-joylashuv va so'rov tezligini filtrlash kabi turli xil filtrlash usullaridan foydalanish serverlaringiz va tarmoqlaringizni zararakunanda trafikdan samarali himoya qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, apparat va dasturiy ta'minot tarmoqlararo ekran, CDN va WAF kabi zamonaviy texnologiyalar va vositalardan foydalanish samarali hisoblanadi. Tarmoqni muntazam zararkunanda trafikdan monitoring va filtrlash qoidalarini yangilash, shuningdek, avtomatik vositalardan foydalanish hujumchilardan bir qadam oldinda turishga yordam beradi va DDoS hujumlaridan ishonchli himoyani ta'minlaydi. Shuni unutmangki, samarali himoya qilish har tomonlama yondashuvni va yangi tahdidlar va zaifliklarga doimiy e'tibor berishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonaliyeva D. Tarmoq xujumlarini aniqlash vositalari tahlili, maqola Информатика и инженерные технологии, 1(2) 2023, 44–48 bet.
(<https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/24979>)
2. F.Q Tojiyeva Tarmoq trafigini sinflashtirish va filtrlash uchun boshqaruv dasturini ishlab chiqish, maqola, Raqamli iqtisodiyot 8-son, 2024, 869-875-bet; (<https://cyberleninka.ru/article/n/tarmoq-trafigini-sinflashtirish-va-filtrlash-uchun-boshqaruv-dasturini-ishlab-chiqish>)

3. G.S. Karimovich, K.M. Malikovich, T.K. Axmatovich axborot xavfsizligi, darslik, toshkent -2016, 206-215 bet.
4. Ips tizimlari arxitekturasida haqida, Netcom Bilgisayar A.Ş, (https://www.netcom.com.tr/uz/ips_tizimlari_arxitekturasida_haqida_aytilmaganlar-139).
5. Фильтрация трафика как метод защиты от DDoS атак, Skyprow, (<https://sky.pro/wiki/python/ponimaem-funktsiyu-enumerate-v-python-na-priemere-koda/>)

IDROKNING XUSUSIYATLARI VA PATOLOGIYASI

Boboqulov Og'abek

ANNOTATSIYA

Maqolada inson psixikasida bilish jarayonlaridan biri bo'lgan idrokning xususiyatlari va uning patologiyasi haqida so'z borgan bo'lib, unda shaxs borliqni, narsa va hodisalarni bilishda, tushunishda idrokning roli hamda shaxs buzulishida, idrok patologiyasidagi kechadigan jarayonlarni yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Idrok, sezgi, retseptor, ekstraretseptorlar, intraretseptorlar, proprioretseptorlar, obyekt va fon markaziy nerv sistemasi, miya postlog'i, neyron, ijodiy hayol, illyuziya, gallyutsunatsiya, shizofrensiya.

KIRISH.

Idrok haqida tushuncha. Idrok - inson ongida sezgi organlarimizga bevosita ta'sir etayotgan narsa va hodisalarni tartibga solinib, yaxlit, bir butun holda aks ettirilishi. Idrok narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi sezgilardan farq qiladi. Lekin idrok narsa ayrim sezgilarning oddiy yig'indisidan iborat emas. Idrok hissiy bilishning yangi, yuqori bosqichidir. Idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bular: idrokning predmetligi, yaxlitligi, ma'lum tartibda tuzilishi, konstantligi, anglanganligi.

Idrokning predmetligi. Idrokning predmetligi ob'ektivlash ham deyiladi va tashqi olamdan olingan ma'lumotlarni shu olamning o'ziga qaratishida ifodalanadi. Tashqi olamdan kelayotgan ma'lumot, obraz (masalan, o'qilayotgan kitobning tasviri) bizning sezgi organlarimizda emas (ko'z ichida emas), balki bizning tanamizdan tashqarida, tashqi olamda deb idrok qilinadi. Bu xususiyatsiz odamning amaliy faoliyatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Idrokning predmetligi tug'ma hisoblanmaydi. Sub'ektda olamning predmetligini ochib beruvchi ma'lum harakatlar tizimi mavjuddir. Bu yerda to'yish va harakat sezgilari muhim rol o'ynaydi. Harakatlar ishtirok etmaganda idroklarimiz predmetlik sifatiga ega bo'lmagan, ya'ni tashqi olam ob'ektlariga qaratilmagan bo'lar edi. Sezgi va idrokning farqini tushunish uchun quyidagi misolga murojaat kilamiz. B.G.Ananov tomonidan bemor kishida kurish analizatorining sezgirligi (sezgi) saqlanib qolgan holda idrokning buzilishi tasvirlangan. Davolanishning avval boshida u butun fazoni qandaydir uzluksiz yorug'lik oqimi sifatida sezgan. Keyinchalik (davolanish natijasida) shaklsiz ma'nosiz dog'larni ajrata olgan. U birorta ob'ektning predmet sifatida xususiyatini so'z bilan ham, chizish bilan ham tasvirlay olmagan. Uch oy davomidagi davolanishlardan keyingina bemor ko'zining idrok qilish xususiyati

qayta tiklangan. Faqat ko‘rish sezgisining o‘zi narsalarni aks ettirishni ta’sinlay olmaydi. Bunga misol tariqasida ko‘pchilik olimlar qurbaqaning ko‘zidagi ko‘z pardaning ishini misol qilib keltiradilar. Qurbaqaning ko‘ziga tushgan soyaning bir necha belgilari, asosan harakatlari va burchaklari haqida darak beradi. Shu sababli baqa harakatsiz pashshalar orasida ochidan o‘lishi ham mumkin.

ASOSIY QISM.

Idrokning predmetlilik va yaxlitligi. Predmetlilik idrokning sifati tarzida ish-harakatlarni boshqarishda alohida rol o‘ynaydi. Bu xususiyat yordamida tashqi olamdan olingan ma’lumotlarni ana shu olamning o‘ziga solishtirib ko‘riladi va idrok obrazlarining real predmetlariga adekvat (mosligi) taminlanadi. Tashqi olam bilan aks ettirilishi mos kelmay qolgan xollarda odam to‘g‘riroq aks ettirishni ta’sinlovchi idrokning yangi usullarini qidirishga majbur bo‘ladi.

Idrokning yaxlitligi. Yukorida ko‘rsatganimizdek, idrok sezgi a’zolariga ta’sir kiluvchi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi sezgilardan farqli ravishda, narsalarning yaxlit obrazidir. O‘z-o‘zidan ravshanki, bu yaxlit obraz turli modallikdagi sezgilar orkali olingan narsalarning ayrim xususiyat va sifatlari haqidagi bilimlarni umumlashtirish asosida vujudga keladi.

Idrokning ma’lum tarzda tuzilganligi. Idrok ko‘p darajada bizning bir lahzalik sezgilarimizga to‘g‘ri kelmaydi va bunday sezgilarning oddiy yig‘indisidan iborat emas. Biz shu sezgilardan abstraktlashgan, ma’lum vaqt davomida tarkib topadigan elementlarning munosabatining umumlashgan tuzilishini idrok qilamiz. Muzika eshitayotgan kishining uning tuzilishini, uning elementlarining o‘zaro munosabatini idrok qiladi. Chunki muzika alohida notalardan iborat emas. Notalarning o‘zaro munosabatigina muzikani tashkil qiladi. Turli notalarni turli ketma-ketlikda, tartibda tuzib, turlicha muzika hosil qilinadi.

Shu bilan birga odam notalarni ma’lum ketma-ketlikda emas, balki yaxlit, bir butun muzika sifatida idrok qiladi. Faqat maxsus maqsad bilangina (kompozitor, tankidchi) alohida nota yoki muzika asboblarning tovushiga e’tibor berishi ularni fikran bir-biridan ajratishi mumkin. Bu xususiyatlar idrokning yaxlitligini beradi.

Idrokning konstantligi va anglanganligi. Idrok qilinayotgan tashqi olam, muhit doimo o‘zgarishda, turli holatlarda, turli sharoitlarda namoyon bo‘ladi. Turlicha yorug‘likda, fazoda turli holatlarda, turli masofda bo‘ladi. Bunday omillar ta’siri ostida ko‘z sezgi organlarimizga kelayotgan ma’lumotlar turlicha bo‘ladi, ularni idrok qilish ham turlicha bo‘lishi kerak. Ammo bizning pertseptiv (idrok qilish) tizimimiz bo‘layotgan o‘zgarishlarni to‘g‘rilash, tiklash qobiliyatiga ega. Shu tufayli biz atrofimizdagi narsalarning shaklini, rangini katta-kichikligini nisbatan o‘zgarmas (konstant) holda idrok qilamiz. Idrokning bu xususiyati ko‘rish idroki misolida tushuntiriladi. Narsaning uzoq-yaqinligiga qarab uning ko‘z to‘r pardasidagi tasviri

ham katta yoki kichik bo'ladi. Biz uzoqdagi narsani kichik, yakindagisini katta deb idrok kilamiz. Agar bir qo'limizni uzoqqa cho'zib, ikkinchisini ko'zga yaqin ushlab tursak ham biz ikkala qo'limizni, barmoqlarimizni kattargan yoki kichraygan holda emas, balki uzoq yoki yaqin sifatida idrok kilamiz. Teatrda orqa joylarda va oldinda o'tirgan tomoshabin sahnadagi aktyorlarni bir xil idrok qiladi (katta yoki kichik emas).

Idrok jarayonining konstantligi tug'ma emas. Masalan, qalin o'rmonda yashovchilar ochiq joylarda (cho'l) uzoqdagi predmetlarni uzoqlikda emas, kichik sifatida idrok qiladilar. Idrokning konstantligi buzilgan, yoki shakllanmagan bo'lsa kishi balanddan turib pastdagi narsiani kichikdek idrok qiladi. Bolaligida ko'r bo'lib qolgan bemor 10-12 metr balanlikdagi derazadan pasga bemalol sakrab tasha olsam kerak deb o'ylagan. Chunki u pastdagi narsalarni, predmetlarni uzoqlikdagi emas, kichkina ob'ektlar sifatida idrok qilgan.

Idrok jarayonining konstantligining pertseptiv tizimining faol harakatidir. Masalan, oynaga qarab turib yozishga harakat qilinsa tez orada kishi avval qiynaladi, keyinroq esa qo'lini to'g'ri boshqarishga o'rganadi. Shuningdek tasvirlarni turli burchak ostida o'zgartirib beruvchi ko'zoynaklar uzoq muddat taqib yurilsa kishi atrof muhitni to'g'ri idrok qilishga o'rganadi. Agar idrokning konstantligi bo'lmasa odam benihoya o'zgaruvchan olamni anglay olmas edi. Idrokning konstantligi tevarak atrofdagi olamning nisbatan barqarorligini ta'minlaydi.

Idrokning anglanganligi. Ma'lumki idrok qo'zg'atuvchining retseptorlarga bevosita ta'siri natijasida yuzaga kelsa ham, biroq pertseptiv obrazlar hamma vaqt ma'lum ma'noga ega bo'ladi. Odamning idroki tafakkur bilan, narsaning mohiyatini tushunish bilan mustahkam bog'liqdir. Narsani ongli idrok qilish – uni fikran atash degan ma'noni anglatadi. Biz idrok kilayotgan narsalarimiz haqidagi ma'lumotlarni o'zimizga tanish bo'lgan narsalarga o'xshashligini aniqlashga, biror sinfga kiritishga, ba'zi kategoriyalarga qo'shishga intilamiz. Appertsepsiya. Idrok, uni yuzaga keltirgan qo'zg'atuvchi bilan birgalikda idrok qilinayotgan sub'ektning o'ziga tegishli bir qator omillarga ham bog'liq. Yakka holda olingan ko'z, yoki quloq idrok qila olmaydi, balki tirik odam idrok qila oladi. Konkret tirik odamning doimo turli qiziqishlari, ehtiyojlari, hohishi, hissiyotlari, munosabati bo'lib, ular idrok jarayoniga ta'sir qiladi. Idrokning odam hayoti mazmuniga va odam shaxsining xususiyatlariga bog'liqligi appertsepsiya deb yuritiladi. Idrok jarayoniga odamning oldingi tajribalari katta ta'sir qiladi. Idrok qilish jarayonida odam sezgi organlar orqali olayotgan ma'lumotlar to'g'risida turli gipoteza (farazlarni) ilgari suradi va tekshirib ko'radi. Idrok qilinayotgan lb'ekt haqida, bevosita ravishda, qancha kam ma'lumot olinsa, farazga shuncha ko'p o'rin beriladi. Agar ma'lumotlar yetarli bo'lsa faraz qilish fazasi bo'lmasligi ham mumkin. (Olport tajribalari). Idrok jarayoniga oldingi tajribaning

ta'siri tekshirish uchun quyidagi tajriba o'tkazilgan. Odamga narsalarning tasvirini 180 gradusga burib ko'rsatadigan ko'zoynak taqilgan. U hamma narsani to'ntaradigan holatda ko'rgan. Unga yoqilgan sham ko'rsatilganda u shamni to'g'ri holda idrok qilgan. Shuningdek Eymning «qiyshaygan xona»larida o'tkazilgan eksperimentlarda shu xonadagi barcha narsalar va odamlar noto'g'ri idrok qilingan. Masalan, katta yoshli odam boladan ham kichik bo'lib ko'rinadi. Lekin xotinlar o'z erlarini odatdagidek, o'zgarmagan holda idrok qilishgan, xonani esa qiyshiq idrok qilishgan.

Idrok kishining o'tmish tajribasiga bog'liq. Odam qancha tajribaga boy bo'lsa, idroki ham shunchalik boy bo'ladi.

Idrok jarayoni kishining motivlariga munosabati (ustanovka) ga ham juda bog'liq.

Idrokning turlari. Idrok klassifikatsiyasining asosi, sezgilardagi kabi, idrok jarayonida ishtirok qiluvchi analizatorlarning har xilligidir. Idrok jarayonida qancha analizatorning yetakchilik qilishiga ko'ra ko'rish, eshitish, tuyush, kinestizik, hid bilish va ta'm bilish idroklari farqlanadi.

XULOSA.

Idrokning sof holatdagi turlari ham uchraydi. Odatda ular birlashib ketgan.

Bundag tashqari materiyaning yashash shakllariga ko'ra ham idrok turlari, fazoni, vaqtni, harakatni idrok qilish aniqlanadi.

NOGIRONLIKKA EGA BO'LGAN INSONLARNI HIMOYA QILISHNING XORIJIY TAJRIBASI

Esirgapova Nargiza Obloqul qizi

Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo'rg'on filiali

Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

e-mail: nargizaesirgapova9@gmail.com

Norjigitova Xumora Norjigit qizi

Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo'rg'on filiali

Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

e-mail: xumoranorjigitova238@gmail.com

Ilmiy rahbar: Ibragimov Jahongir Toshniyozovich

Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

e-mail: jahongir.5066@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda nogironlarni ijtimoiy himoya qilish hamda ularga yaratilayotgan imkoniyatlar bayon etilgan. Maqolada asosiy urg'u xalqaro tajriba bilan yaqindan tanishish, nogironligi bo'lgan shaxslar muammolarining dunyo miqyosida qanday yechilishini o'rganish va ularni O'zbekistonga tadbiq qilish yo'llariga qaratiladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy himoya, xalqaro tajriba, ta'lim, texnologiya, imkoniyatlar.

Kirish.

Xalqimiz azal-azaldan boshiga musibat kelganda qo'lni qo'lga berib, hamdard bo'lib kelgan. Yiqilganni suyash, ko'makka muhtojlarga yordam qo'lini cho'zish azaliy odatlarimizdandir. Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish eng asosiy masala bo'lgani bois, yurtimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilib, bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ushbu maqolada biz nogironlarni har tomonlama himoya qilish ularning huquqlarini anglatish va shu asosda xorijiy mamlakatlarda nogironlarga e'tibor qanday darajada ekanligini yoritishga harakat qilamiz. Nogironlikka ega bo'lganlar jamiyatning muhim va ajralmas qismidir. Ular turli xil sabablar, jumladan, jismoniy, aqliy, eshitish, ko'rish yoki rivojlanish bilan bog'liq cheklovlariga ega bo'lishi mumkin. Ma'lumki, yer yuzining qariyb 15 foizi nogironlikka ega bo'lgan insonlardir. Ular nafaqat ijtimoiy g'amxo'rlikka muhtoj insonlar, balki, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy rivojlanishining resursi sifatida qabul qilishimiz lozim. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni

ko'rsatmoqdaki, nogironlarga yaratilgan sharoitlar kelajakda o'zining ijobiy devidentlarini beradi.¹

Asosiy qism. Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish nima va uni qanday amalga oshirish mumkin?

Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish — nogironlarga turmush faoliyati cheklanganligini bartaraf etishi, qoplashi (kompensatsiya qilishi) uchun shart-sharoitlarni ta'minlovchi hamda ularga jamiyat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng ishtirok etish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan, davlat tomonidan kafolatlangan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi². Bundan ko'rinib turibdiki nogironlarni ijtimoiy himoya qilish har bir davlatda ma'lum qonunlar bilan belgilab qo'yilgan. Nogironligi bo'lgan insonlarni ta'lim sohasida, tibbiy jihatdan sog'lomlashtirish, bandligi bo'yicha, sport sohasida keng ko'lamli islohatlar olib borish nogironlarni ijtimoiy himoya qilishning asosiy ko'rinishlaridan desak mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, ta'lim sohasini oladigan bo'lsak nogironlarni o'qitish bo'yicha maktablar ochilgan bo'lishiga qaramasdan ularda juda ko'plab muammolar hali ham bartaraf etilmaganligini guvohi bo'lamiz. O'zbekistonda alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun inklyuziv ta'lim loyihasi Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda amalga oshirildi. O'zbekistonda ham bunday o'qitish tizimini joriy qilish orqali alohida nuqsoni bo'lgan bolalar vasog'lom bolalar o'rtasida tenglikni shakllantirishdir, va shu asosda Amerikadagi nogironlarga ta'lim tizimini quyidagicha ko'rib chiqishimiz mumkin. Ma'lumki Amerika Qo'shma Shtatlari ta'limga katta e'tibor qaratgan davlatlardan biri hisoblanadi. Bu albatta nogironlarni chetlab o'tgan emas. Amerika Qo'shma Shtatlarida nogironlarning huquqlari qonun bilan mustahkamlangan va insonga nisbatan kamsitishni taqiqlovchi umumiy fuqarolik huquqlari tizimiga kiritilgan. Bu boradagi asosiy meyoriy-huquqiy hujjat 1990 yilda qabul qilingan "Nogironlar to'g'risida" gi qonun bo'lib, ushbu ijtimoiy guruhning huquqlarini federal darajada himoya qiladi va mehnat munosabatlarida, davlat idoralarida, jamoat joylarida, savdo va transportda kamsitishni taqiqlaydi.³ Nogironlarni o'qitish uchun ular maxsus qonun qabul qilishgan. Nogironlarni o'qitish to'g'risidagi qonun IDEA (The Individuals with Disabilities Education) - bu butun mamlakat bo'ylab nogiron bolalar uchun bepul tegishli davlat ta'limini taqdim etadigan va ushbu bolalarga maxsus ta'lim va tegishli xizmatlarni ta'minlaydigan qonundir. Ushbu g'oya Shtatlar va davlat idoralari 7,5

¹ Nogironligi bo'lgan shaxslar bilan Ijtimoiy ish amaliyoti 9-bet Uslubiy qo'llanma M.S.Abbasova

². O'zbekiston Respublikasining Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 15 oktabrda 641-sonli qonuni

³ Nogironligi bor shaxslar bilan ijtimoiy ish texnologiyalari O'quv uslubiy majmua-2024

milliondan ortiq munosib chaqaloqlar, kichkintoylar, bolalar va nogiron yoshlarga, maxsus ta'lim va tegishli xizmatlarni qanday taqdim etishini boshqaradi. Shu bilan birgalikda Amerika Qo'shma Shtatlarida yana bir muhim qonun qabul qilingan bo'lib bu ADA (The Americans with Disabilities Act) deb nomlanadi. Nogironligi bo'lgan amerikaliklar to'g'risidagi qonun nogironlarni ish bilan ta'minlash, transport, jamoat turar joylari, aloqa va davlat va mahalliy hukumat dasturlari va xizmatlaridan foydalanish kabi bir necha sohalarda kamsitishni taqiqlaydi. Qonunning maqsadi nogironlarning boshqalar kabi huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashdir. ADA buni nogironlar uchun kundalik hayotning barcha jabhalarida-ishga joylashish imkoniyatidan tortib, Tovar va xizmatlarni sotib olishi, davlat va mahalliy hokimiyat dasturlari va xizmatlarida ishtirok etishgacha kafolatlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki Amerikada nogironlarga juda katta e'tibor berilmoqda. Ular uchun ko'plab dasturlar ishlab chiqilgan.

Rossiyada 1960-70-yillarda olimlar A.A.Venger, G.L.Vigodskaya va E.I.Leonard go'dak va maktab yoshigacha bo'lgan kar va yaxshi eshitmaydigan bolalarni oilada tarbiyalash imkoniyatlarini aniqlash bo'yicha izlanishlar olib borishdi. Yuqorida nomlari keltirilgan mualliflar keyinchalik «Ota-onalar uchun topshiriqlar» uslubiy qo'llanmasini tayyorlashdi va maktabgacha yoshdagi davrgacha ularning umumiy va nutqiy rivojiga muvaffaq bo'lishdi. Ularning materiallarida ilk yoshdanoq bolalar bilan ishlashni tashkil qilish to'g'risida, shuningdek, bir qator sabablarga ko'ra maxsus maktablarga farzandlarini yubora olmaydigan ota-onalar uchun amaliy tavsiyalar keltirilgan. Bunda ota-onalarni o'z farzandlarini uyda tarbiyalashga undaydigan sabablarga: oila turar joyining maktabgacha talim muassasasidan uzoqda joylashganligi, farzandning jismonan zaifligi, unda boshqa nuqsonlar ham bo'lishi, ota-onalarning farzandlarini internat turidagi maktabgacha talim muassasalariga berishni xohlamasligi, bazi ota-onalarning maxsus maktabgacha talim muassasalaridagi o'qitish va rivojlantirish darajasidan qoniqmasligi, farzandlaridan uzoqlashishni xohlamasligi va boshqalar kiradi. Rossiyada nogironlarga hamma sharoitlar bo'lishi bilan birga yuqoridagi muammolarga ham duch kelishimiz mumkin. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlardan nogironlarni ijtimoiy himoyasini tahlil qilib chiqqanimizda asosan ta'lim sohasidagi kamchiliklarning ham guvohi bo'lamiz. Buyuk Britaniyadagi nogironlarning ish bilan taminlashning bir nechta variantlari mavjud. Bir kishi JobCentrePlus tashkilotiga murojaat qilishi mumkin, u erda barcha nogironlar ish qidirish va ish qidiruvchilar uchun imtiyozlar olish uchun murojaat qilishadi. Keyin u mutaxassisga - nogironlarni ishga joylashtirish bo'yicha maslahatchiga yuboriladi. Maslahatchi unga keyingi harakatlar rejasini ishlab chiqishda yordam beradi. Maslahatchilar guruhi talabgorning maqomini batafsil tahlil qilish uchun qo'shimcha mintaqaviy ekspertlarni jalb qilishi mumkin. Bular

fizioterapevtlar, kasbiy terapevtlar, tizim mamurlari, nogiron odamlarni qollab-quvvatlash va moslashtirish bo'yicha mutaxassislardir. Nogironlar uchun yangi imkoniyatlar bandlik bo'yicha brokerlar tomonidan amalga oshiriladigan dastur orqali taminlanadi. Nogironlar ushbu dasturga bevosita murojaat qilishlari mumkin. Ushbu dastur JobCentrePlus bilan tuzilgan shartnoma asosida bir qator ko'ngillilar, jamoat va xususiy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Xizmat ish qidirishda odamlarning muammolarini rejalashtirish va hal qilishda intensiv yordamni o'z ichiga oladi.⁴O'zbekiston ham nogironlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha Rossiya tajribasini ham aytishimiz mumkin. Misol uchun Rossiyada nogironlarni ish bilan ta'minlash uchun kvota tizimi joriy qilingan. Xususan har bir korxonada ishchilarning 2-4% qismini nogironlar tashkil qiladi. Nogironlarni ishga qabul qilgan tashkilotlarga soliq imtiyozlari beriladi. O'zbekistonda ham korhonalarda nogironlarning ma'lum qismi ishlashlari mumkin. Yana bir tajriba sifatida Nogironlarni masofaviy ish bilan ta'minlash tizimini kiritishimiz mumkin. buning uchun esa IT va xizmat ko'rsatish tizimga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Buyuk Britaniyaning ijtimoiy xizmatlarida nogironlar uchun maxsus bandlik xizmatlari mavjud. Ularda nogironlarga ish topishda yordam ko'rsatiladi, maxsus transport vositalariga haq to'lash uchun nafaqa ajratiladi va mijozning ish joyi zarur jihozlar bilan taminlanadi. Nogironlarni ishga qabul qiladigan muassasalar har oy uchun maxsus uskunalar (nogironlar aravachalari, nogironlar uchun liftlar) sotib olish uchun nafaqa oladilar. Og'ir kasalliklarga ega nogironlar uyda ishlashlari mumkin va shu maqsadlar uchun ular maxsus kompyuter uskunalarini o'rnatadilar. To'liq yoki qisman ko'rishni yo'qotgan odamlar uchun o'quvchining xizmatlari uchun to'lovni to'lash uchun imtiyoz beriladi (uni o'qigan odam). Boshqa rivojlangan davlatlar qatori Buyuk Britaniya ham nogironlarni ijtimoiy himoyasi bo'yicha uzoq yillik tajriba va qonunchilik bazalariga ega. Bunda biz O'zbekistonga bunday tizimlarning qaysi birini samarali tashkil qila olishimiz haqida aytib o'tadigan bo'lsak Britaniyada nogironlarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida tenglik to'g'risidagi qonun qabul qilingan. To'g'ri O'zbekistonda ham bunday qonunlar mavjud. Biroq nogironlarning imkoniyatlarini ularga barcha sharoitlar bilan ta'minlashda muammolarni ham uchratishimiz mumkin. Misol uchun jamoat joylarida nogironlarning barcha xizmatlardan foydalanish ya'ni nogironlar yo'laklari, liftlar, transportdan foydalanish mukammal darajada to'liq takomillashgani yo'q. Nogironlarni ishga joylashuvida ham kamchiliklar mavjuq. Nogironlar huquqlarini buzgan tashkilotlarga jazo mexanizmlari amalga oshirilmaydi. Buyuk Britaniyada esa shu jihatlariga ham alohida e'tibor qaratiladi. Shuning uchun ham Buyuk Britaniyada nogironlarni ish

⁴ Nogironligi bor shaxslar bilan ijtimoiy ish amaliyoti o'quv-uslubiy majmua 66-bet

bilan ta'minlash juda yaxshi desak ham bo'ladi. Britaniyada barcha jamoat transporti, binolar va xizmat ko'rsatish maskanlari nogironlar ehtiyojlariga moslashtirilgan. Jamiyatda nogironlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish. Britaniyada nogironlarga nisbatan streotiplarni yo'qotish uchun ommaviy axborot vositalar orqali keng ko'lamli kompaniyalar olib boriladi. O'zbekistonda ham nogironlik bo'yicha shunday dasturlarni targ'ib qilish ya'ni nogironlarning yutuqlari va ijobiy hayotiy hikoyalarini va nogironlarga ularning huquqlarini himoya qilish bo'yicha trening va seminarlar tashkil etish ham nogironlarga nisbatan jamiyatda mavjud bo'lgan salbiy fikrlarni yanada kamroq bo'lishiga zamin yaratadi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, nogironlikka ega bo'lgan insonlarni himoya qilishda xorijiy tajriba ularning huquqlarini himoya qilish, jamiyatga integratsiya qilish va yashash sifatini yaxshilash ushuni samarali mexanizmlarini joriy etganini ko'rsatadi. Bu tajriba O'zbekistonda ham ushbu sohani rivojlantirishda muhim o'rnak bo'lishi mumkin. Nogironlikka ega bo'lgan insonlarni ijtimoiy himoya qilish. Nogironlikka ega bo'lgan insonlarni ijtimoiy himoya qilish masalasi har bir davlatning barqaror rivojlanish dasturlarida muhim o'rin tutadi. Nogironlar jamiyatning teng huquqli a'zolari sifatida o'z huquqlarini to'liq amalga oshirishi, sifatli hayot kechirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun huquqiy bazani mustahkamlash, infratuzilmani rivojlantirish va ijtimoiy yordam tizimlarini takomillashtirish zarur.

Nogironlarni ijtimoiy himoya qilishning muhim yo'nalishlari

1. Qonunchilik va huquqiy himoya. Nogironlarning huquqlarini himoya qilish uchun huquqiy asoslarni yaratish muhim. Masalan, AQShda Nogironlar huquqlari akti (ADA), Yevropa davlatlarida Nogironlar huquqlari bo'yicha konvensiya qabul qilingan. Bu qonunlar nogironlarni diskriminatsiyadan himoya qilish va ularning imkoniyatlarini kengaytirishni ta'minlaydi.

O'zbekistonda ham 2021-yilda qabul qilingan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi qonun bu yo'nalishda muhim qadam bo'ldi, ammo amaliyotda ko'plab masalalar hali ham o'z yechimini kutmoqda.

2. Ta'lim va ish bilan ta'minlash. Nogironlarni qo'llab-quvvatlashda inklyuziv ta'lim va bandlikni ta'minlash muhimdir. Germaniya, Yaponiya va Rossiyada korxonalar uchun nogironlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha kvotalar joriy etilgan. O'zbekistonda bunday tizimni rivojlantirish nogironlarni iqtisodiy hayotga integratsiya qilishda muhim ahamiyatga ega.

3. Reabilitatsiya va ijtimoiy yordam. Skandinaviya davlatlarida reabilitatsiya xizmatlari va ijtimoiy yordam keng qamrovli va individual ehtiyojlarga

moslashtirilgan. Nogironlar nafaqat tibbiy yordam, balki psixologik va kasbiy reabilitatsiya xizmatlaridan ham foydalanadi.

O'zbekistonda reabilitatsiya markazlarini rivojlantirish muhimdir.

4. Jamiyatda ijobiy muhit yaratish. Rossiya va Yevropada nogironlarga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirish uchun madaniy tadbirlar, sport musobaqalari va ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot ishlari amalga oshiriladi. O'zbekistonda ham jamiyatni nogironlarning muammolariga e'tiborli qilish va ular haqida ijobiy fikr shakllantirish uchun keng ko'lamli dasturlar amalga oshirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 15 oktabrda 641-sonli qonuni.

2. Nogironligi bo'lgan shaxslar bilan Ijtimoiy ish amaliyoti 9-bet Uslubiy qo'llanma M.S.Abbasova.

3. Nogironligi bor shaxslar bilan ijtimoiy ish texnologiyalari O'quv uslubiy majmua-2024

4. Nogironligi bor shaxslar bilan ijtimoiy ish amaliyoti o'quv-uslubiy majmua 66-bet.

УДК 373

ФОРМИРОВАНИЕ У ДОШКОЛЬНИКОВ НАВЫКОВ СОТРУДНИЧЕСТВА ПОСРЕДСТВОМ КВЕСТ-ИГР, КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

*Мухаммадиева Фарангиз – студентка магистратуры
Ташкентского Государственного
Педагогического Университета им. Низами
Научный руководитель: Джамилова Н.Н. д.п.н. профессор
кафедры «Методика дошкольного образования» ТГПУ*

Аннотация: данная статья раскрывает сущность нового этапа в дошкольном образовании понятия «квест-игры», а также процесс использования Квест-игр в формировании навыков сотрудничества со сверстниками у дошкольников.

Ключевые слова: ДОО, квест-технологии, детские квесты, сотрудничество, театрализация, индивидуальные особенности.

FORMATION OF COOPERATION SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH QUEST GAMES AS A SOCIO-EDUCATIONAL PROBLEM.

Abstract: this article reveals the essence of a new stage in preschool education of the concept of “quest games”, as well as the process of using Quest games in developing skills of cooperation with peers in preschoolers.

Key words: preschool educational institution, quest technologies, children's quests, cooperation, theatricalization, individual characteristics.

Gohida ovqat (*masalan, el hosil qiluvchi mosh va dukkaklilar, shuningdek, sintetik holda tayyorlangan, o'ta yog'li, achchiq va sho'r eguliklar*) yoqmaganda badanga eshakem toshadi. Qadimgi tabiblar xastalikni yong'oq moyi yordamida davolashgan. Eshakem toshib, qichishgan joylarga bir necha kun shu moydan surtib, ustidan ipak mato bilan bog'lab qo'yiladi.

Yong'oq moyini uy sharoitida tayyorlash mumkin. Buning uchun yong'oq mag'zini yaxshilab qizdirib, hovoncha yoki go'shtqiydalagichda maydalang. Sun'iy toladan tayyorlangan mato (*kapron*) ichini maydalangan yong'oq bilan to'ldiring (*chunki u yog'ni shimib olmaydi. Shuning uchun bu turdagi eski paypoqlaringizdan foydalansangiz bo'ladi*) va og'zini mahkam berkiting. Keyin uni ehtiyotkorlik bilan burang. Ostiga birorta idish qo'yishni unutmang. Nihoyat, undan sarg'ish-yashil rangli yog' oqib tusha boshlaydi. Qopchani to'liq bo'shatib, yog'dan bemalol foydalanishingiz mumkin. Aytgancha, bu yog' qo'l, yuz va bo'yin terilarini yumshatish, kuygan joylarni davolash, surunkali yaralarni tuzatish xususiyatiga ham ega.

Allergiyalar uchun eng samarali davolash allergen ta'siriga yo'l qo'ymaslikdir. Biroq, ba'zida allergendan to'la qutulish mumkin emas. Bemorlarni ularning alergenlarini qanday to'g'ri aniqlashni bilish uchun ham o'qitish muhimdir.

ALLERGIYAGA QARSHI DORI VOSITALARI

Dorilar allergiya belgilarini bartaraf etishga yordam beradi, ammo uni davolay olmaydi. Allergiyalarni davolash uchun ko'plab tabletkalar shifokor retseptisiz mavjuddir. Dori vositasini ishlatishdan oldin shifokoringizga murojaat qiling.

Antigistaminlar (gistamin antagonistlari): ular allergik reaksiyaning bir qismi bo'lgan, tanada ishlab chiqariladigan gistaminning ta'sirini to'xtatadilar. Ba'zi antigistaminlar bolalar uchun mos emas.

Burun uchun tomchilar: Ba'zi bemorlar pollinoz bo'lgan hollarda burun uchun tomchilar yordam berishadi, deb aytishadi. Burun uchun tomchilar qisqa muddatli ta'sir ko'rsatadi.

Leykotrien retseptorlari antagonistlari (antileykotrienlar): astmada yoki boshqa davolanishlar foyda bermaganda buyuriladi. Antileykotrienlar *leykotrien* — shishishiga olib keladigan kimyoviy moddalar ta'sirini bloklaydi. Leykotrien allergik reaksiya vaqtida tanada ishlab chiqariladi.

Steroid tomchilar: burun bitishini kamaytirishga yordam beradi, doimiy burun bitishi sinusit, jumladan va boshqa kasalliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://med360.uz/kasalliklar/allergiya/>
2. <https://darakchi.uz/oz/16385>
3. <https://mymedic.uz/kasalliklar/allergiya/allergiya-sabablari-tashxisi-davolash/>

MIYAGA QON QUYILISHI

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

DO‘SANOVA GULSHODA RUZIMURODOVNA

Annotatsiya: Ushbu maqola miyaga qon quyilishi kasalligi kelib chiqish sabablari, klinikasi davolash, bu kasallikda zamonaviy davolash usullarini qo'llash, zamonaviy texnikalardan foydalanishga muljallangan.

Abstract: This article is intended to discuss the causes of cerebral hemorrhage, clinical manifestations, treatment, application of modern treatment methods in this disease, and the use of modern techniques.

Аннотация: Эта статья о кровоизлиянии в мозг. причины заболевания, клиническое лечение, применение современных методов лечения этого заболевания, современные методики.

Miyaga qon quyilishi bu — miya shikastlanishining bir shakli. Uning boshqa nomi apopleksiyadir. Miyaga qon quyilganida uning biror qismiga qon borishi to'satdan to'xtaydi. Natijada, miyaning shu qismi bilan bog'liq barcha tuzilmalar shikastlanadi. Miyaga qon kelishi bir nechta sabablarga ko'ra buzilishi mumkin:

1. Biron-bir qon tomiri shikastlanishi va bu qon ketishiga olib kelganda.
2. Qon tomirida tromb hosil bo'lib, qon o'tishini to'sib qo'yganda. Bu jarayon tromboz deb ataladi.
3. Arteriya spazmi paydo bo'lganda.
4. Qon tomirini biron-bir kichik zarracha, ko'pincha qonda suzib yuradigan qon quyqasi to'sib qo'yganda. Bu jarayon emboliya deb ataladi. Emboliya odatda yurak kasalliklari bilan bog'liq, ammo boshqa kasalliklar ham emboliyaga sabab bo'lishi mumkin. Agar siz quyidagi alomatlardan birini ko'rsangiz, sizda miyaga qon quyilishi mumkin:

Miyaga qon quyilishining sababi unchalik muhim emas. Muhim jihati u keltirib chiqaradigan oqibatlar: harakatimiz, hislarimiz, haroratimiz va ko'rish qobiliyatimizni boshqaradigan miya qismlariga zarar yetkazishdir. Miyaga qon quyilishining eng keng tarqalgan sababi trombozdir. Ajablanarlisi shundaki, bu turdagi miyaga qon quyilishi hatto harakatsiz holatda ham sodir bo'lishi mumkin. Masalan, kishi ertalab uyg'onib, qo'li, oyog'i yoki tanasining yarmini qimirlata olmasligi mumkin. Yoki gapirish qobiliyatini qisman yoki butunlay yo'qotishi mumkin. Bu turdagi miyaga qon quyilishini boshdan kechirgan odamlar yana faol hayot kechirishi mumkin. Ammo odatda ba'zi asoratlar saqlanib qoladi. Miyaga qon

quyilishini davolashda shifokor, birinchi navbatda, uning sabablarini aniqlashi kerak. Buning uchun shifokorga bemorning to'liq tibbiy kasallik tarixi kerak bo'ladi.

Miyaga qon quyilishi natijasida nogiron bo'lib qolgan odamlar ko'pincha jismoniy mashqlar orqali avvalgi holatini tiklashi mumkin. Miyaga qon quyilishi mushaklarga va gapirish qobiliyatiga ta'sir qilganlarga ham bu mashqlar foyda beradi.

Miyaga qon quyilishi, ya'ni gemorragik insultning kelib chiqish sabablari: (qonda glyukoza miqdori oshib borishi natijasida qandli diabet xavfli bosqichga kirib boradi); arteriyaning kengayishi. Bu tug'ma yoki hayot davomida ba'zi sabablarga ko'ra orttirib olingan bo'lishi mumkin; miya tomirlarining qandaydir o'tkir buyum tufayli jiddiy jarohat olishi; gemorragik diatez (tomir devorlarining shikastlanishi, buzilishi); vrach nazorati, maslahatisiz turli antikoagulyantlarni, dorilarni iste'mol qilish; infeksiya tufayli miya to'qimalari shamollashi (ensefalit va boshqalar).

Miyaga qon quyilishi, odatda, katta yarim sharga ziyon yetkazadi. Shu bilan birga, nafas yo'llari, yurak faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Ammo kasallik belgilari juda tez fursatda ma'lum bo'lgani sababli, vrachlar tashxis qo'yishda qiyinchilikka duch kelishmaydi. Miyaga qon quyilishini jarrohlik operatsiyasi yordamida bartaraf etsa bo'ladi. Ammo bu har doim ham kutilgan natijani bermaydi.

Kasallikning klinik belgilari

Miyaga qon quyilganda inson o'zini juda yomon his etgan holda ko'ngil aynishi, bosh og'rig'i, alahlash yuzaga kelishi mumkin. Agar qon miyadagi asosiy to'qimalarni egallagan bo'lsa, bemor koma holatiga tushib qolishi ehtimoldan xoli emas.

Muolajalar

Miyaga qon quyilishini davolash amaliyoti sira ortga surilmasligi lozim. Aks holda, jarayon bemorni o'limga olib keladi.

Mutaxassislar birinchi navbatda ishni organizmning ziyon ko'rgan qismlarini davolashdan boshlashlari lozim. Shunisi muhimki, bemorni kasalxonaga olib borish juda-juda qisqa, tez fursatda amalga oshirilishi shart.

Qon bosimi doimo nazorat ostida bo'lishi, me'yordan oshib yoki tushib ketmasligi kerak. Bunday paytda peshob haydovchi dorilar ko'rsatilgan tartib va miqdorda iste'mol qilinadi. Farmakologik preparatlar yordamida miya qon tomiri devorlari mustahkamlanib boriladi.

Neyrojarrohlik yo'li bilan davolash

Agar miya hududida gematomalar paydo bo'lsa, anevrizm tomirlar yorilsa, neyrojarrohlik davolash usuli qo'llanadi. Ammo bu usul kasallik paydo bo'lgandan so'ng ikki kun ichida operativ tarzda qo'llanishi lozim. Chunki keyingi kunlarda neyrojarrohlik usulini qo'llash bemorning hayotini jiddiy xavf ostiga solib qo'yadi.

Reabilitatsion terapiya

Insultdan so'ng bosh miyaning qay tarzda zarar ko'rganiga qarab reabilitatsion terapiya belgilanadi. Bunga jismoniy mashqlar, uqalash, elektrostimulyatsiya, magnitoterapiya va boshqa muolaja turlari kiradi. Ular ham mutaxassis nazorati ostida amalga oshiriladi. Basharti bemor gapira olmaydigan holatda qolsa, logoped yordamidan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://bilim.tma.uz/articles/318>
2. <https://ghealth121.com/treatments/brain-hemorrhage/?lang=uz>

ANIMIYA KASALLIGINING KELIB CHIQISHI

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

**SAYFIYEVA NARGIZA XUSNIDDINOVNA
RAVSHANOVA KUMUSHBIBI QOBIL QIZI**

Annotatsiya: Ushbu maqola animiya kasalligining kelib chiqish sabablari, klinikasi davolash, bu kasallikda zamonaviy davolash usullarini qo'llash, zamonaviy texnikalardan foydalanishga muljallangan.

Абстрактный: Данная статья призвана описать причины анемии, ее клиническое лечение, применение современных методов лечения этого заболевания, а также применение современных методик.

Abstract: This article is intended to discuss the causes of anemia, its clinical manifestations, treatment, application of modern treatment methods in this disease, and the use of modern techniques.

Anemiya yoki kamqonlik atamasi ostida qon hajmining birligida qizil qon pigmentining (gemoglobin) yoki qizil qon tanachalarining (eritrositlar) yetishmasligi tushuniladi. Anemiya quyidagi sabablarga ega bo'lishi mumkin: o'tkir yoki surunkali qon yo'qotish (yara, operasiya, oshqozon-ichak sohasida qon yo'qotish); qon hujayralarining tez nobud bo'lishi yoki eritrositlar hayotining davomiyligining qisqarishi; bir xil, balanslashtirilmagan oziqlanish, qon uchun foydali bo'lgan elementlarning tanqisligi (oqsil, temir, foliy kislota, B12 vitamini, mis); ichakda muhim elementlarning so'rilishining buzilishi (surunkali oshqozon-ichak kasalliklari tufayli). Eng keng tarqalgan anemiyaning turidan biri bu — temir moddasining tanqisligidir. Uning oziq-ovqatlardagi yetishmovchiligi uning organizmdagi defisitga olib keladi. Qon tizimi yetarli darajada temir moddasini qabul qilmasa, u o'z navbatida gemoglobinning yetarli miqdorini ham ishlab chiqara olmaydi. Oqibatda esa eritrositlar unga yetarli darajada qoniqmasdan, organizm yetarli miqdorda kislorodga erishmaydi.

Anemiyada bolaning terisi rangsiz, oq bo'lib, bolaning tirnoqlari ostida, lablari va ko'zning shilliq qatlaminin shunday rangda bo'lishi kuzatiladi. Agarda ushbu holatda bola o'zini toliqqan, e'tiborning susayishi, holsizlik hamda ishtahaning pasayishi qo'shilsa albatta vrachga murojaat eting. Anemiya faqat qon taxlilidan so'ng aniq belgilanadi. Muhim: aksariyat bolalar rangsiz yuz va toliqqan ko'rinishda bo'lsalar ham, kamqonlik kasalligidan aziyat chekmaydilar.

Bolalarda anemiya toliqish, rangsizlik, ishtahaning yo'qolishi, bosh og'riqlari, teri quruqligi, tirnoq va sochlarning sinuvchanligi, og'iz burchaklaridagi yoriqlar va turli yuqumli kasalliklarga tez chalinishlari bilan namoyon bo'lishi mumkin. Kasallikning og'ir shakllarida qiyin nafas olish, bosh aylanish, tez yurak urishi, shilliq qatlamlarning o'zgarishi (silliq malina rangidagi til, ta'm, hid sezishning o'zgarishi, yutishning murakkablashishi), shu bilan birga jigar va taloqning shishishi ham kuzatiladi.

Agarda emizikli bola rangsiz, holsiz, ishtahasining bo'g'ilganligi, rivojlanishning sustligi va yuqumli kasalliklarga tez chalinishi kuzatilsa — bu kamqonlikning belgilaridan biri bo'lishi mumkin.

Psevdoanemiya va yashirin anemiya tushunchalari

Psevdoanemiya-bu shish rezorbsiyasi paytida to'qima suyuqligining qon oqimiga kirishi.

Yashirin anemiya-bu suvsizlanish paytida suyuq qon tarkibining katta qismini yo'qotish natijasidir (diareya, qusish, giperhidroz tufayli yuzaga kelishi mumkin). Barcha anemiyalar turli yo'llar bilan namoyon bo'ladi. Patologik holatni keltirib chiqargan sababni va uning alomatlarini hisobga olgan holda, uning to'rtta asosiy turi mavjud:

- posgemorragik anemiya (surunkali / o'tkir qon yo'qotish tufayli);
 - gemolitik anemiya (qizil qon tanachalarining yo'q qilinishi tufayli rivojlanadi).
- Ushbu guruhga irsiy gemolitik anemiya kiradi:

- glyukoza-6 fosfat dehidrogenaza etishmasligi bilan
- talassemiya
- o'roqsimon hujayra;
- Minkovskiy-Shoffar;

• kamqonlik (mikroelementlar/vitaminlar/temir tanqisligi, ya'ni gematopoez jarayonida muhim rol o'ynaydigan har qanday elementlar tufayli yuzaga keladi);

• gipoplastik anemiya (bu suyak iligida qon hosil bo'lishining buzilishi, eng xavfli shakl).

Qonning rang ko'rsatkichiga ko'ra anemiya quyidagilarga bo'linadi:

• normoxromik (gemoglobin normal). Ushbu guruhga gemolitik va posthemorragik anemiya kiradi;

• giperxromik (gemoglobin ko'tariladi). Bunga foliy etishmovchiligi va B12 etishmovchiligi anemiyasi kiradi;

• gipoxromik (gemoglobin kamayadi). Bu talassemiya, temir tanqisligi va surunkali posthemorragik anemiyani anglatadi.

Eritrositlar diametri bo'yicha anemiya quyidagilarga bo'linadi:

- megaloblastik (B12 etishmovchiligi anemiyasi);
- normositar (deyarli barcha gemolitik va o'tkir posthemorragik anemiya);
- makrositar (yangi tug'ilgan chaqaloqlarning foliy etishmovchiligi, gemolitik kasalligi);
- mikrotsitar (surunkali postgemorragik anemiya).

Qon zardobidagi temir tarkibiga ko'ra anemiya quyidagilarga bo'linadi:

- normosideremik (o'tkir postgemorragik anemiya);
- giposideremik (surunkali postgemorragik va temir tanqisligi anemiyasi, talassemiya);
- gipersideremik (gemolitik va B12 etishmovchiligi anemiyasi).
- Temir tanqisligi anemiyasi: gemoglobin ishlab chiqarish uchun juda muhim bo'lgan tanadagi temir etishmasligi. Bu tanqislik noto'g'ri ovqatlanish, surunkali qon yo'qotish yoki temirning so'rilishi bilan bog'liq muammolar tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Vitamin tanqisligi anemiyasi: Eritrotsitlar ishlab chiqarish va DNK sintezi uchun zarur bo'lgan B12 vitamini yoki folatning etishmasligi.

Surunkali kasallik anemiyasi: Buyrak kasalligi, saraton yoki yallig'lanish kasalliklari kabi surunkali kasalliklar qizil qon hujayralari ishlab chiqarishga yoki umr ko'rishga xalaqit berishi mumkin.

Aplastik anemiya: otoimmün kasalliklar, ayrim infeksiyalar yoki zararli moddalar ta'sirida suyak iligi etarli darajada qizil qon hujayralarini ishlab chiqara olmaydi.

Gemolitik anemiya: qizil qon hujayralarining muddatidan oldin nobud bo'lishi, bu otoimmün kasalliklar, infeksiyalar yoki irsiy kasalliklar tufayli yuzaga kelishi mumkin.

O'roqsimon hujayrali anemiya: qizil qon tanachalari g'ayritabiiy shaklga ega bo'lgan irsiy kasallik bo'lib, qon tomirlarida tiqilib qolishga olib keladi va kislorod etkazib berishni kamaytiradi.

- Oziqlanishni sozlash:

Temirga boy ovqatlar: yog'siz go'sht, loviya, yasmiq va quyuq bargli ko'katlarni qo'shing.

Vitaminga boy ovqatlar: B12 vitamini (go'sht, sut mahsulotlari) va foliy kislotasi (bargli ko'katlar, mevalar) ga boy ovqatlar iste'mol qiling.

Oziq moddalarning so'rilishini kuchaytirish:

Vitamin C: tsitrus mevalari va pomidor kabi temirning so'rilishini yaxshilash uchun S vitaminiga boy ovqatlarni qo'shing.

Ba'zi oziq-ovqatlardan saqlaning: ovqat paytida choy yoki qahva kabi moddalarni iste'mol qilishni kamaytiring, bu temirning so'rilishini inhibe qiladi.

Surunkali vaziyatlarni boshqarish:

Kasalliklarni boshqarish: tegishli davolanish va turmush tarzini o'zgartirish orqali asosiy surunkali kasalliklarni bartaraf etish.

Qon yo'qotish bilan kurashish:

Manbani aniqlang va davolang: oshqozon-ichakdan qon ketish yoki og'ir hayz ko'rish kabi qon yo'qotishiga olib keladigan sharoitlarni boshqaring.

Qo'shimchalar

Temir qo'shimchalari: temir tanqisligini tuzatish uchun.

Vitamin qo'shimchalari: B12 vitamini yoki foliy kislotasi etishmasligini bartaraf etish uchun.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://med24.uz/uz/bolezn/anemiya-nizkiy-gemoglobin>
2. <https://dmclinic.uz/kamqonlik-anemiya/>
3. <https://ghealth121.com/treatments/anemia/?lang=uz>
4. Shomurotovna R. Y., Ismoilovna A. M. TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY FAOLIYATDA SALOMATLIKKA TASIR QILUVCHI XAVF OMILLAR //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 3. – С. 160-164.
5. Shomurotovna R. Y., Ismoilovna A. M. SOG'LOM OVQATLANISH TAMOYILLARI //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2023. – Т. 11. – №. 3. – С. 134-137.

VITAMIN YETISHMOVCHILIGI

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

FAZLIDINOVA SARVINOZ BAKIROVNA

Annotatsiya: Ushbu maqola vitamin yetishmovchiligi kasalligi kelib chiqish sabablari, klinikasi davolash, bu kasallikda zamonaviy davolash usullarini qo'llash, zamonaviy texnikalardan foydalanishga muljallangan.

Abstract: This article is intended to discuss the causes of vitamin deficiency disease, its clinical manifestations, treatment, application of modern treatment methods in this disease, and the use of modern techniques.

Аннотация: Данная статья призвана описать причины авитаминоза, его клиническое лечение, применение современных методов лечения при этом заболевании, а также применение современных методик.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'rlikning eng keng tarqalgan sababi A vitamini yetishmasligidir. JSST 1995 yilda 13,8 million bola VAD bilan aloqador ma'lum darajada ko'rish qobiliyatini yo'qotganligini taxmin qildi. Tungi ko'rlik va uning yomonlashgan holati, kseroftalmiya, A vitamini yetishmovchiligining belgisidir, to'planishi, Bitot dog'lari deb nomlanadi, shox pardaning yarasi va nekrozi keratomalaziyani ko'rish mumkin. VAD ning subklinik bosqichida limbusning lateral tomoni atrofida konyunktival nuqsonlari paydo bo'ladi. Bu kon'yunktiva epitelii nuqsonlari biomikroskopda ko'rinmaydi, lekin ular qora dog'ni oladi va kajal (surma) tomizilgandan keyin osongina ko'rinadi; Bu "Imtiaz belgisi" deb ataladi. Avitaminoz ovqatlanishning uzoq vaqt davomida buzilishi natijasida yuzaga keladi, bu esa organizmda vitaminlar yetishmovchiligiga olib keladi. Asosiy sabablarga quyidagilar kiradi:

- Qish mavsumida vitaminlar yetishmasligi.
- Noto'g'ri yoki yetarli ovqatlanmaslik.
- Ba'zi dorilarni uzoq vaqt qabul qilish (masalan, qon ivuvchanligini oshiruvchi).
- Ovqat hazm qilish tizimi ishining buzilishi.
- Ayniqsa, bolalar va keksalarda moddalar almashinuvining buzilishi.
- Vitamin yetishmovchiligining namoyon bo'lishi (gipovitaminoz) qanday vitamin yetishmasligiga bog'liq.

Vitamin A (retinol) yetishmovchiligi - birinchi navbatda oftalmologik va dermatologik

patologiyalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. "Shapko'rlik" rivojlanadi - yetarli yorug'lik bo'lmasa, ko'rish qobiliyati buziladi. Yorqin kun yorug'ligi yomon qabul qilinadi. Konyunktiva ta'sirlanadi (konyunktivit rivojlanadi) va shox parda (u yumshaydi, teshilishi mumkin). quriydi va infeksiyaga qarshi himoyasiz bo'ladi (furunkulyoz rivojlanadi). A vitamini yetishmasligida nafas olish yo'llari kasalliklarini (rinit, bronxit) rivojlanish ehtimoli ham oshadi.

Vitamin B1 (tiamin) yetishmovchiligi - beri-beri kasalligi deb ataladigan alomatlar majmuasi shaklida namoyon bo'ladi. Eng tipik kasalliklari quyidagilardir: bosh og'rig'i, charchoq, aqliy va umumiy zaiflik, yurish paytida noaniqlik, karaxtlik va bo'g'imlar tortishishi hissi. Yurakdagi og'riq, taxikardiya, ko'ngil aynish, ich qotishi va boshqa ba'zi bir ko'rinishlarning paydo bo'lishi ham mumkin.

Vitamin B2 (riboflavin) yetishmovchiligi - lablarning shikastlanishida namoyon bo'ladi (lablar yorilib, og'iz burchaklarida yoriqlar paydo bo'ladi), og'iz shilliq qavati zararlanadi (stomatit rivojlanadi). Quruq teri ham kuzatiladi; vazn yo'qotish va mumkin.

Vitamin B6 yetishmovchiligi - teri va nevrologik tizimiga ta'sir qiladi. Eng tipik alomatlar terining qurishi, seboreik dermatoz (bosh terisi, yuz, bo'yin), tilning qizarishi, og'iz burchaklaridagi yoriqlar, uyquchanlik va bo'g'imlar tortishishi hissiyotlari (qo'llar va oyoqlar), kamqonlik va kichik bolalarda tutilish bo'lishi mumkin.

Vitamin B12 yetishmovchiligi - anemiyaning keng tarqalgan sabablaridan biri bo'lib, uning fonida ko'pincha umumiy zaiflik, terining rangarligi, nafas qisilishi, taxikardiya, bosh aylanishi kabi alomatlar kuzatiladi.

Vitamin C (askorbin kislota) - yetishmovchiligi kasalligi tarixda qoraquloq (milk kasalligi) kasalligi deb atalgan. Odatiy alomatlar: tish go'shtining qizarishi, shishishi va qon ketishi (og'ir holatda tishlar tushishi mumkin), mushaklarning kuchsizligi, yurish paytida oyoqlarning og'rig'i va terida ko'karishlar.

Vitamin D yetishmovchiligi - raxit va osteoporozni keltirib chiqarishi mumkin, chunki bu suyak to'qimalarida o'zgarishlarga olib keladi. Suyaklarning deformatsiyasi bolalarda kuzatilishi mumkin, kattalar (ayniqsa qarilikda) ko'pincha sinishdan aziyat chekadi. Boshqa ko'rinishlar: zaiflik, charchoqning kuchayishi, qo'l va oyoqlarda mushak tortishishi, uyqusizlik, vazn yo'qotish va ishtahani yo'qotish.

Vitamin E yetishmovchiligi - gemolizni (qizil qon hujayralarining parchalanishini) keltirib chiqaradi, bu esa reproduktiv funktsiya buzilishiga olib keladi. Asosiy alomatlar: mushaklarning distrofiyasi, harakatlarning muvofiqlashtirilish imkoniyati sustligi, ko'rishning buzilishi. Teri elastikligini yo'qotadi, xiralashadi va sinishni boshlaydi.

Gipovitaminoz va avitaminozni davolash tanadagi yetishmayotgan vitaminni to'ldirishga qaratilgan. Avitaminozni davolashdan oldin albatta laborator tahlillarni topshirish kerak. O'zboshimcha vitaminlarning ko'p miqdordagi qabuli gipervitaminozga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://med24.uz/uz/bolezni/avitaminoz>
2. <https://shifo.uz/article/vitamin-yetishmovchiligi-avitaminoz>

ENDOMETRIOZ KELIB CHIQISHI VA ASORATLARI

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

NAJMIDDINOVA NAZIRA PARDABOYEVNA

Annotatsiya: Ushbu maqola endometriozi kasalligi kelib chiqish sabablari, klinikasi davolash, bu kasallikda zamonaviy davolash usullarini qo'llash, zamonaviy texnikalardan foydalanishga muljallangan.

Аннотация: Данная статья призвана описать причины эндометриоза, его клиническое лечение, применение современных методов лечения при этом заболевании, а также применение современных методик.

Abstract: This article is intended to discuss the causes of endometriosis, its clinical manifestations, treatment, application of modern treatment methods in this disease, and the use of modern techniques.

Endometriozi — bachadon bo'shlig'ining ichki qavati, uning yuzasi, shuningdek boshqa a'zo to'qimalarida endometriy (bachadon devori ichki qavati) hujayralarining o'sishi bilan tavsiflanadigan kasallik. Endometriy o'sish o'chog'i joylashuviga qarab **genital endometriozi** (o'z ichiga bachadon endometriozi ham oladi) va **ekstragenital endometriozi** shakllari ajratiladi. Ommaviy qarashlarga qaramasdan, bu kasallik nafaqat jinsiy yetuk ayollarda, balki o'smirlarda va erkaklar orasida ham qayd qilinishi mumkin. Ammo ayollar orasida endometriozi tarqalganligini inobatga olib (reproduktiv yoshdagi ayollarning uchdan biri ushbu kasallikdan aziyat chekadilar), bu kasallikni «ayollar kasalligi» deb atash mumkin. Kasallikning rivojlanishi uchun ikkita asosiy omil kerak:

- Mo'ljallanmagan joyda tug'ma anomaliyalar yoki menstrual ajralmalar kirishi orqali endometriy hujayralarining mavjudligi;
- Estrogen gormoni sekretsiyasini kuchayishi bilan birga kechadigan gormonal buzilishlar.

Hozirgi vaqtda endometriy to'qimalari zarralarining tarqalishi, va, natijada endometriozi o'choqlarining tarqalishi sabablarini tushuntirib beruvchi bir nechta qarashlar mavjud. Ular quyidagilar:

- Menstruatsiya vaqtida endometriy hujayralarining transportirovkasi va ularning keyinchalik bachadonning sirtki qatlamiga, bachadon bo'yni to'qimalariga, qin devorlariga, tashqi jinsiy a'zolarga birikib o'rtnashishi, shuningdek, retrograd

menstruatsiya sababli endometriy to'qimalarini tuxumdon, qorin bo'shlig'i sohasiga, tos a'zolariga otilishi;

- Endometrioiz bilan shikastlanib bo'lgan to'qimalarning limfa oqimi orqali tarqalishi nazariyasi bachadon bo'shlig'i bilan boshqa boshqa yo'llar orqali aloqasi bo'lmagan a'zo va to'qimalarda patologik o'choqlarning joylashganligini tushuntiradi;

- Siydik-tanosil tiziming qoldiq rudiment embrional to'qimalari transformatsiya qilmasliklari mumkin va boshqa a'zolarida kam miqdorda qolib, salbiy omillar ta'siri ostida patologik faollik rivojlantirishlari mumkin. Ushbu nazariya homila ona qornidaligida siydik-tanosil tizimining hamma hujayralari jinsiy o'ziga xoslikni olmagan bo'lsa, erkaklarda endometrioiz rivojlanishining epizodlarini tushuntiradi. Erkaklarda endometrioiz o'choqlari rivojlanish ehtimoli estrogenlarni qabul qilishda ancha ko'tariladi, masalan, prostata bezi o'simtali kasalliklarini davolashda;

- Kasallik uchun irsiy moyillik nazariyasi ham mavjud.

Quyidagi omillar endometriy o'sishi patologik o'choqlarining rivojlanishi ehtimolini sezilarli darajada oshiradi:

- Kichik tos va reproduktiv tizim a'zolarida tez-tez sodir bo'ladigan infeksiyon va yallig'lanishli jarayonlar;

- Neoplazmalar, o'smalar, ;

- Operativ manipulyatsiyalar, invaziv muolajalar (, jarrohlik aralashuvi, abort, bachadon bo'shlig'ini tozalash, bachadon eroziyasini operativ davolash va hokazo);

- Asoratli tug'ruq jarayoni;

- Endokrin buzilishlar, turli xil etiologiyali gormonal disbalanslar;

- , immun himoya buzilishlari;

- Chekish, spirtli ichimliklarni, kofeinli ichimliklar va preparatlarni ortiqcha iste'mol qilish.

Endometrioizdagi simptomatik tasvir sezilmas, xira bo'lishi, boshqa kasalliklar va disfunktsiyalarning alomatlariga o'xshashi, ayrim ayollarda umuman alomatlarsiz kechishi mumkin. Faqatgina endometrioizga xos bo'lgan spetsifik belgilar mavjud emas, ammo bachadon va reproduktiv a'zolarida endometriy o'sishini quyidagi alomatlariga asoslanib shubha ostiga olish mumkin:

- Qorinning pastki qismida og'riq, ba'zan yorqin namoyon bo'ladi va uzoq davom etadi, chov va belga tarqalishi mumkin, bu «surunkali tos og'riqlari» deb ataladi;

- Og'riqning jinsiy aloqa, defakatsiya, ginekologik tekshiruvlar vaqtida kuchayishi;

• Ko'p ajralma kelishli (anemiya hollariga qadar) uzoq davom etadigan og'riqli hayz, **menstrual siklning buzilishi**;

• **Birlamchi, ikkilamchi bepustlik**. Endometriozi tashxislash uchun kasallik markazlari ko'rish va olingan parchasida patologik tekshirish o'tkazish kerak. Buning uchun laparoskopik usul qo'llaniladi. Laparoskopik usulda aniq tashhis qo'yish va davolashni qo'llash mumkin. Bemorning shikoyatlar shokolad kista yoki bemorda bepustlik muammo bo'lsa, laparoskopiya diagnostik maqsadlar uchun amalga oshirilishi mumkin. Laparoskopiyadan oldin, vaginal ultrason tekshiruvi ham tashxis qo'yish uchun yordam beradi. Ultratovush yordamida katta shokolad kistalarini ko'rish mumkin. Laparoskopik yoki klassik jarrohlik operatsiyalari bilan endometriozi lezyonlarini olib tashlash yoki yo'q qilish mumkin va alomatlarni bartaraf etish yoki homiladorlikni rivojlantirish mumkin. Ammo, boshqa davolanishlarda bo'lgani kabi, kasallikning takrorlanish ehtimoli keng tarqalgan.

Endometriozi davolashni eng oddiy, arzon va eng kam invaziv usullardan boshlash tavsiya etiladi. Endometriozdagi og'riq sindromi bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada pasaytiradi, shuning uchun og'riqni bartaraf etishga yetarlicha e'tibor berish kerak. Buning uchun oddiy analgetiklar (paratsetamol) va NYQP ishlatiladi. 2003 yilda platsebo bilan taqqoslaganda algodismenoreyani davolashda NYQPning samaradorligini oshkor etuvchi sistematik tekshiruv o'tkazildi. Tadqiqotda qatnashgan ayollarning katta ulushi endometriozi uchraganligi juda muhim.

Kombinativ oral kontraseptivlarni og'riqli sindromda beradigan nafi borasida juda kam dalillar mavjud, ammo ular hozirgacha qo'llanilmoqda va samarali hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, progesteron preparatlari samaradorligi endometriozi tasdiqlangan tashxisiga ega bo'lganda qo'llaniladigan boshqa dorilar samaradorligi bilan bir xil. Ulardan ushbu kasallikda foydalanish yaxshi tolerantlik va oz sonli nojo'ya ta'sir tufayli mos bo'ladi.

Endometriozi medikamentoz davolash laparoskopik davolash usullari paydo bo'lishidan oldin amalda keng mavjud edi. Tasdiqlangan endometriozi davolash uchun samarasi isbotlangan asosiy dorilar quyidagilardir:

- Progestin (progesteron) preparatlari, masalan, dienogest;
- Monofazali kombinativ oral kontratseptivlar;
- Danazol;
- Gestrinon (Nemestran);
- Gonadotropin rilizing-gormon agonistlari (masalan, Dekapeptil depo — mikrokapsulalangan triptorelin va diferelin — oddiy triptorelin).

Ushbu dorilarning birontasi eng yuqori samardorlikka ega ekanligi borasida dalillar yo'q. Tanlov nojo'ya ta'sirlar spektri, shaxsiy intolerantlik va narx asosida amalga oshiriladi. Ushbu dorilar jarrohlikka tayyorgarlik ko'rishda samara berishi haqida dalillar mavjud, shuningdek, operatsiyadan keyingi davrda ulardan foydalanish ancha uzoq og'riq qoldiruvchi ta'sir qilishi haqida ham.

JARROHLIK YORDAMIDA DAVOLASH

Bu jarrohlik usullaridan biri yordamida endometriozi o'choqlarini (tugunlarni) to'liq olib tashlashni nazarda tutadi. Hozirgi vaqtda rezektsiya, elektrokoagulyatsiya, lazerli vaporizatsiya qo'llanilmoqda. Ularning barchasi isbotlangan ta'sirga ega, lekin birining ikkinchisidan ahamiyatli ustunligi haqida ishonchli ma'lumotlar aniqlanmagan. Ko'pgina jarrohlarning rezektsiya barcha tugunlarni butunlay olib tashlash imkonini beradi deb hisoblashadi, ayniqsa katta o'lchamdagilarni, xususan, vaporizatsiya yoki elektrokoagulyatsiyadan so'ng ular butunlay yo'qolib ketmasligi ham mumkin. Bu usul, shuningdek, bir vaqtning o'zida biopsiya uchun material olish imkonini ham beradi.

Tuxumdonning endometrioid kistalari to'liq olib tashlanishli ekstsiziya eng yaxshi usul sanaladi. Ushbu operatsiyadan keyingi simptomatik yengillik drenajlash va ablyatsiyadan ancha ustunroq turishi isbotlangan, shuningdek, bir vaqtning o'zida noyob tuxumdon o'smalari mavjudligini istisno qilish maqsadida gistologik tekshiruv uchun materiallar olish imkonini beradi.

Ichak, siydik pufagi va Duglas makoni jalb etilgan endometriozi o'g'ir bosqichlarida operatsiya ginekologik laparoskopiyaga ixtisoslashgan yirik ginekologik markazlarda o'tkazilishi kerak, iloji bo'lsa urolog va kolorektal jarroh nazorati ostida. Bunday hollarda operatsiya ichakni, me'dani rezektsiya qilish va siyik yo'llarini reimplantatsiyasini o'z ichiga olishi mumkin. Bachadon va ortiqlarni olib tashlash hozirgi vaqtda tobora kamroq qo'llanilmoqda, ko'plab metodikalar faqat endometriozi o'choqlarini olib tashlash va to's sohasining normal anatomiyasini tiklashga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://mymedic.uz/kasalliklar/ginekologiya/endometriozi/>
2. <https://bahceci.com/uz/endometriozi/>

DORI MODDALARINI ORGANIZIMGA YUBORISH

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

BEGMATOVA MALOXAT AKBAROVNA
GANIYEVA NIGINA ABDUKARIMOVNA

Annotatsiya: Ushbu maqola Dori moddalarini organizimga yuborish, bu jarayonda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish, favqulodda holatlar yuzaga kelganda yordam berish choralariga mo'ljallangan.

Abstract: This article is intended to address the administration of drugs into the body, problems that arise during this process, their elimination, and measures to provide assistance in the event of emergencies.

Аннотация: Данная статья предназначена для введения лекарственных средств в организм, проблем, возникающих при этом процессе и их устранении, а также мер по оказанию помощи в экстренных ситуациях.

Dori moddalarini sirtidan qo'llash: Teriga dorilar malham, emulsiya, eritma, kukun, damlama, chayqatma (boltushka) holida qo'llanadi. Dorini ishlatish uning mahalliy ta'siriga (ko'pchilik mota astlanmagan terining so'rish xususiyati nihoyatda kam uchun), yog'da eruvchi moddalargina asosan, yog bez amoninash usullari surtish, kompresslar, primochka (lattani ho'llab bosish), 'sepish, jarohatga har xil bog'lamlar qo'yish va ishqab (iylab) surtish. Dorilarni toza teriga, loza asboblarda va qo'lni tozalab yuvgandan keyingina qo'yish kerak. Dezinfeksiya qilish yoki reflektor ta'sir ko'rsatish maqsadida teriga ko'pincha yodning spirtidagi eritmasi surtiladi. Buning spindagi eritmasiga ho'llab teriga surtiladi va surib tashlab yuboriladi. Flakondagi yodni paxta tolalari bilan ifloslantirmaslik uchun surtgichni yodning spirtli eritmasi solingan flakonga botirish yaramaydi. Buning uchun ozroq yod eritmasini stakaanga quyib olish lozim. Yodning spirtidagi eritmasi tiqini zich berkilmaydigan idishda uzoq saqlansa, spirtning bug'lanishi hisobiga yod konsentratsiyasi kuchayishi mumkin. Ana shunday konsentrlangan eritmani terining nozik sohalariga surtish, uning kuyishiga sabab bo'ladi. Kukun dorilar - turli xil teri kasalliklarida (ayniqsa, bichilishda) keng qo'llaniladi. Buning uchun qo'llar yuvilgach, kukun dori sepiladigan sohalar yaxshilab toza doka salftka bilan artib quritiladi va kukunli idishni to'ngan holda kerakli sohalariga bir xil tarqaladigan qilib silkitiladi. Bemorning xijolatli sohalariga kukun dori sepiladigan bo'lsa uni boshqa hemorlardan ajratib qo'yish choralari ko'rilishi lozim. Muolajani tugatgach qo'llar yuviladi. Teriga malhamlar qo'llash. Vrach tavsiyasiga binoan malhamlar teriga surtilishi, ishqalab (silab) surtilishi va bog'lamlar holida qo'yilishi mumkin.

Teriga mahamni surtish uchun qo'llar yuvib tozalanadi. Bemor qulay ' vaziyatni olgach malhamni tyubikdan kurakchaga yoki shpatelga siqib

chiqariladi va kerakli sohaga surtiladi. Ishlatilgan kurakeha yoki shpatelni qaytib malhamli qutiga (idishga) tiqish yaramaydi. Qo'llar yuvilib, malhamning so'rilishiga e'tibor berib turiladi. Malhamni ishqalab (iylab) surtish quyida joylashgan to'qimalarga, nerv tolalariga, a'zolariga ta'sir ko'rsatish maqsadida amalga oshiriladi. Buning uchun bemor qulay vaziyat olishi tavsiya etiladi. Qo'llar yuviladi. Malham maxsus ishqalash moslamasiga tushiriladi kerakli sohaga aylanma harak 5- 10 daqiqa davomida silab ishqalanadi. Muolajadan so'ng qo'llar yuviladi va bemor nazoratga olinadi. Malhamli bog'lam qo'yish uchun qo'llar yuviladi, kerakli miqdordagi malham shpatel yordamida olib salftkaga surtiladi. Malham sathi qo'yiladigan yuzaga mos kelishi kerak. Malhamli salftka kerakli joyga qo'yilgach ustidan paxta bo'lagi qo'yilib bint bilan (88-rasm) mahkam bog'lanadi. Qo'llar yuviladi va bemorga bog lam qancha vaqtga qo'yilganligi tayinlanadi. ' yuzaga mos kelishi kerak. Malhamli salftka kerakli joyga qo'yilgach ustidan ' paxta bo'lagi qo'yilib bint bilan mahkam bog'lanadi.

Qo'llar yuviladi va bemorga bog'lam qancha vaqtga qo'yilganligi tayinlanadi. Malhamli bog'lam qo'yish. Ko'z kasalliklarini davolashda turli xil eritmalar va malhamlar qo'llanadi. Ulardan maqsad - mahalliy ta'sir qilishdir. Biroq konyunktivaning so'rish qobiliyati yaxshi bo'lib, dorilarni dozlashda ana shu ' ' jihatlarni ham hisobga olish kerak. Ko'zga tomiziladigan tomchi dorilarning steril saqlanishiga alohida e'tibor ' berish zarur. Ko'z kasalliklari xonasida ko'z dorilarining eritmaları tubi keng, ' ' bo'lgan rezim qalpoqchali tomizg'ich kiydirilgan maxsus kolbachalarda ' ' saqlanadi. Dori to'ldirishdan oldin kolbachalar distillangan suvda yuviladi va 15 daqiqa qaynatiladi. Tomizg'ichlar alohida, ulardan olib qo'yilgan rezina qalpoqchalari bilan qaynatiladi. Sovitilgandan so'ng tomizg'ichlarga rezina qalpoqchalar kiydiriladi va mos keladigan kolbachalarga solib qo'yiladi. Bu ish qo'lga steril rezina qo'lqoplar kiyib bajariladi. Dori 2 kunga yetadigan qilib qo'yiladi va tegishli etiketka yopishtiriladi. Dorilar ko'zga tomizg'ich bilan tomiziladi. Muolajadan avval qo'lni yaxshilab ' ' ' yuvish lozim. Bemordan yuqoriga qarash so'raladi va bu vaqtda chap qo'ldagi ' steril nam deka sharcha bilan qovoqni pastga tortiladi. O'ng qo'l barmoqlari ' bilan tomizg'ichning rezina qalpoqchasi bosiladi va qovoq orasiga 1-2 tomchi ertma tomiziladi. Qovoqlar yumilganda dorining ortiqchasini o'sha doka shar- chaning o'zi shimib oladi. Konyunktival xaltachaga bir tomchi dori sig'adi ' xolos, shuning uchun 1-2 tomchidan ortiq kiritish kerak emas. Dori tomizishda tomizg'ichning uchi bemorning kipriklariga tegmasligi kerak, bordi-yu, tegib ketsa bu tomizg'ichdan foydalanish mumkin emas, uni albatta sterillash zarur. Malham dori ko'zga oldin qaynatib olingan maxsus shisha kurakcha yordamida

qo'yiladi. Buning uchun kurakcha uchiga ozgina malham olinib, uni qovoq chetiga parallel holda ushlab, pastki oraliq burmaga tegiziladi. Shundan keyin bemor qovoqlarini yumadi, malhamni qovoqlar orasida qoldirib, kurakchani esa chekkaga tomon gorizontal yuritib ohista chiqariladi. Malham ko'z soqqasi yuzasiga yaxshiroq yopishishi uchun yumilgan qovoqlar usti steril sharcha bilan yengil ngalanadi. Burunga kukun, eritma, emulsiya, malham va bug' (amilnitrat, novshadil spirti bug'lari) ko rinishidagi dorilar mahalliy, rezorbtiv va reflektor ta'sir ko rsatish maqsadida kiritiladi. Burun shilliq pardasidan dorilar juda tez so'riladi.

Kukundori burunga nafasga olinadigan havo oqimi bilan tortiladi: burunning o ng katagini bekitib turib, kukunni chap katagi orqali tortiladi va aksincha. Odam xushdan ketganda reflektor ta'sir ko'rsatish uchun novshadil spirtiga ho llangan paxta sharcha bemorning burniga yaqinlashtiriladi, uning bug lari nafas orqali burunga kiradi. Tomchi dorilar burunga tomizg'ich orqali (bolalarga 2-3 tomchi, kattalarga 5-6 tomchi) tomiziladi. Tomizishdan oldin bemor burnini qoqib olishi kerak, bolalarning burni esa steril paxta tamponlar («pilikchalar») bilan tozalanadi. Bemor o'tirgan bo'lsa, undan boshini orqaga tashlash Dori moddalarini takror yuborish, birgalikda ko'llash.

Dori moddalar takror-takror yuborilganda, ularning ta'siri zurayishi yoki susayishi mumkin. Uzoq muddat mobaynida takror yuborilgan dori moddalarining shifobaxsh ta'siri susayishi - organizmning unga *urganib kolishi* yoki *tolerantlik* deb ataladi. Dori moddalari kiska muddat ichida takror-takror yuborilganda xam ularning ta'siri kamayishi mumkin, bu xolat *taxifilaksiya* (yunoncha tachys- tez, pylaxis-ximoya) deb ataladi. Dori moddalari takror yuborilganda ularga nisbatan organizmning sezuvchanligi oshib ketadi, bu xolat sensibilizatsiya deb ataladi. Ba'zi dorilar takror va takror kabul kilinganda ular organizmda tuplanadi, bunda ta'sir kuchi va ta'sir muddati xam oshib boradi, bu xolat kumulyatsiya deb ataladi. Kumulyatsiya 2 xil buladi: 1) moddiy kumulyatsiya -dori moddalari, masalan digitoksin , neodikumarinning organizmda sof xolda tuplanishi: 2) funkstional kumulyatsiya - dori moddalari ta'sirining jamlanishi: masalan, etil spirtining ta'siri tuplanadi, chunki uzi organizmda juda tez oksidlanadi, tukimalarda ushlanmaydi, fakat neyrotrop ta'siri jamlanadi. Ba'zi dori moddalari takror kabul kilingandan keyin bemor jismoniy yoki ruxiy jixatdan xush yokadigan tinchlanish yoki engil kuzgalishni sezadi. Natijada shifokor kursatmasi bulmasa xam bemorda bu dorilarni kayta-kayta kabul kilish istagi paydo buladi. Bu xolat xumorlik, tobelik deyiladi. Markaziy nerv sistemasiga ta'sir etuvchi moddalar: morfin, kodein, barbituratlar, diazepam, etil spirti, kokain va bir kator boshka dori moddalari ushbu xolatga sabab buladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/organizmga-dori-moddalarini-yuborish-usullari>
2. <http://old.tashpmi.uz/uz/education/faculties/medical-pedagogical/pharmacology/Studentam/>
3. Sharofitdinovna N. P., Shomurotovna R. Y. FARINGIT KASALLIGI HAMDA UNING OLDINI OLISH //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 5. – №. 1. – С. 169-174.
4. Shomurotovna R. Y., Tukhtaevna T. S. HEALTH OF MEDICAL WORKERS AND RISK FACTORS AFFECTING THEM //Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 26-30.

NARKOZ PAYDO QILUVCHI MODDALAR

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi
SAYFULLAYEVA HAYOTXON SAYFULLA QIZI
KOSIMOVA SHOXSANAM ABDURAXMONOVNA

Annotatsiya: Ushbu maqola narkoz paydo qiluvchi dori vositalari ularni olish usullari, tibbiyotda qo'llanilish sohalariga mo'ljallangan.

Аннотация: Данная статья посвящена наркотическим средствам, способам их получения, областям применения в медицине.

Abstract: This article is intended for anesthetic drugs, methods of their administration, and areas of application in medicine.

Hozir har qanday kichik jarrohlik amaliyoti narkoz ostida amalga oshiriladi. Ammo har doim ham bunday bo'lmagan. Narkozning bugungi ko'rinishiga qadar qadimda turli ko'rinishdagi og'riq bosuvchi suyuqliklar, turli usullar qo'llanilgan.

Og'riq qoldirishning eng qadimgi usullari

Juda qadimdan odamlar qanday qilib og'riqni yengillashtirish haqida o'ylay boshlashgan. Ammo u davrda qo'llanilgan og'riq bosuvchi usullar hayot uchun birmuncha xavf tug'dirgan. Masalan, Qadimgi Yunonistonda og'riq qoldiruvchi vosita sifatida mehriyoh (ya'ni mandragora) ildizidan foydalanishgan. Ushbu o'simlik zaharli bo'lib, ko'p holatlarda gallyutsinatsiya va kuchli zaharlanishlarga sabab bo'lgan. Keyinchalik yunonlar xavfsiz usul sifatida "uyqu po'kaklaridan" foydalana boshlashgan. Uyqu po'kaklari dengiz ostida yashovchi, tanasi bilan toshlarga zich jipslashgan holatda o'suvchi organizmlardir. Ko'rinishidan esa xuddi qalin tanali dengiz o'tlarini yodga soladi. Yunonlar mazkur o'simlikni olib, avvaliga karaxt qiluvchi o'simlik bilan shimdirishgan va uni yoqishgan. Po'kakning yonishidan hosil bo'lgan tutunni bemorga hidlatishgan va u uxlatuvchi ta'sir ko'rsatgan.

Qadimgi Misrda og'riq qoldiruvchi vosita sifatida sikuta deb nomlanuvchi zaharli suv o'tidan foydalanilgan. Ammo afsuski, anesteziyaning bunday turidan keyin kamdan-kam bemorlar tirik qolgan. Anesteziyaning boshqa samarali usullaridan biri qadimgi hindcha og'riq bosuvchi usullar hisoblangan. Ular tarkibida kokain mavjud bo'lgan koka o'simligi barglaridan foydalanishgan. Tabiblar avvaliga mazkur o'simlik barglarini chaynab, yaralangan askarlarga tuflashgan. So'lak tarkibidagi kokain bemorlar holatini yengillashtirgan. Og'riq qoldirishning mazkur usulidan Xitoy tabiblari ham unumli foydalangan. Mahalliy og'riqsizlantiruvchi

vositalardan foydalanish bir qator kiruvchi reaksiyalar bilan birga bo'lishi mumkin. Mana ulardan ba'zilari:

- * Allergik reaksiyalar, shu jumladan anafilaksi, bu hayot uchun xavfli holat. Semptomlar orasida qichishish, ertiker, yuzning shishishi, nafas olish qiyinlashuvi va qon bosimining pasayishi bo'lishi mumkin.

- * Toksiklik. Lokal anesteziyaning haddan tashqari dozasi ko'ngil aynishi, qusish, bosh aylanishi, konvulsiyalar va hatto komaga olib keladigan tizimli toksiklikka olib kelishi mumkin.

- * Mahalliy yon ta'siri. In'ektsiya joyida yonish, karincalanma, og'riq, shishish va qizarish paydo bo'lishi mumkin.

- * Uzoq muddatli uyqusizlik. Ba'zi hollarda behushlik uzoq muddatli uyqusizlikka olib kelishi mumkin, bu protseduradan keyin bir necha soat yoki hatto bir necha kun davom etishi mumkin.

Lokal anesteziyadan foydalanish tavsiya etilmaydigan holatlar mavjud:

- * Lokal anesteziyaga ma'lum allergiya mavjudligi.
- * Yurak etishmovchiligi yoki gipertoniya kabi yurak yoki qon tomir kasalliklarining mavjudligi.

- * Preparatni qabul qilish joyida infeksiyalarning mavjudligi.

- * Homiladorlik va laktatsiya davri.

Mahalliy og'riqsizlantiruvchi vositalarni ishlatishdan oldin, shifokor bilan barcha mumkin bo'lgan xavf va foydalarni muhokama qilish muhimdir.

Mahalliy og'riqsizlantiruvchi vositalar turli mutaxassisliklar shifokorlarining ajralmas yordamchilari hisoblanadi. Ular sizga og'riqli protseduralarni amalga oshirishga imkon beradi, operatsiyadan keyingi davrni bemorlar uchun qulayroq qiladi va lokal behushlik paytida asosiy dorilarning dozasini kamaytirishga yordam beradi.

Uxlatuvchi moddalar – barbituratlar . 5. Miorelaksantlar – rampun, rometar . 6. Antigistamin moddalar – dimedrol . Premidikasiya - bu hayvonni narkozga farmakologik tayyorlash . II. Og'riqsizlantirish tarixi . Og'riqsizlantiruvchi vositalar haqidagi dastlabki ma'lumotlar Misr qo'lyozmalarida keltirilgan. Ma'lumotlarga qaraganda 350 yilda Aspirot, Pelagoniy otlarni og'riqsizlantirish uchun sikuta, hind nashasi, afyun qo'llaganlar. X asrda (980g'1097) yashagan Abu Ali Ibn Sino og'riqsizlantirish uchun operatsiya vaqtida sovuq ta'siridan foydalangan. Ruini 1550 yilda birinchi marta otlarda narkoz o'tkazish texnikasini va miqdorlari to'g'risida to'liq ma'lumot bergan. XVII asrning o'rtalarida Uren (1657) va (1667) hayvonlarning vena qon tomirlariga afyunni inyeksiya qilishgan. X. Devi 1799 yilda azot (I)-oksidini tadbiq etdi. 1844 yilda tish vrachi G.Uels anesteziyalovchi modda sifatida taklif etdi. 1846 yilda Morton shu maqsadda efir ishlatib ko'rdi. Efir narkozi

2. Kashnich (koriander) .Kashnich O‘zbekistonda oson va erkin o‘sadi. O‘simlik mukammal tozalash xususiyatlariga ega. O‘simlik tarkibidagi moddalar tanadan og‘ir metallarni olib chiqish va zararli ta’sirini zararsizlantirishga yordam beradi. Kashnich urug‘lari suvni tozalash uchun ham juda yaxshi qo‘llaniladi. Buning uchun qisqa vaqt ichida suv idishga urug‘lar solingan paketni tashlasangiz bo‘ldi.

3. Arpabodiyon. Arpabodiyon mevalari juda foydali. Uning tarkibida saratonga qarshi vosita – anetol, S vitamini, qondagi xolesterin kamaytiradigan oziq to‘qimalar kabi kuchli moddalar mavjud. Bundan tashqari, arpabodiyon stressni kamaytiradi, asab va ovqat hazm qilish tizimlarini tinchlantiradi va shamollash, stomatit va faringit bilan muvaffaqiyatli kurashadi. Arpabodiyon deyarli hech qanday qarshi ko‘rsatmalarga ega emas, shuning uchun u yosh bolalar va homilador ayollarga beriladigan ovqatga bimalol qo‘shiladi.

4. Yalpiz .Yalpiz - bu efir moyining tarkibiy qismidir (mentol). Yalpiz choyi oshqozon-ichak traktining buzilishlariga qarshi kurashda samarali vositadir. Yalpiz asab tizimini tinchlantiradi, og‘riqni yengillashtiradi va tanadan ortiqcha suvni olib tashlaydi.

5. Sebarga Sebergani butun O‘zbekiston bo‘ylab topish mumkin, lekin eng muhimi – namligi juda yuqori bo‘lgan joylarda u ko‘proq bo‘ladi. O‘zbekiston hududida bir vaqtning o‘zida bir necha turdagi sebarga o‘sadi, ularning har biri an‘anaviy tibbiyotda keng qo‘llaniladi. Qizil sebergadan damlamalar tayyorlanadi va taloq kasalliklarida qo‘llaniladi. O‘tloq sebergasi bronxit, yo‘tal, kamqonlik, bezgak, astma uchun ishlatiladi. Oq sebergadan tonik, og‘riq qoldiruvchi va kuch beruvchi dorivor sifatida ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.agro.uz/dorivor-osimliklar/>
2. <https://uzbekistan.travel/uz/o/ozbek-dorivor-osimliklari/>
3. https://uza.uz/oz/posts/ming-dardga-davo-shifobaxsh-giyohlar_541594

DORI MODDALAR SHAKLI

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

SHARAFIDDINOVA MASHXURA ALOVATDINOVNA

KARIMOVA YULDUZ MAMADALIYEVNA

Annotatsiya: Ushbu maqola dori moddalar shakli, bugungi kunda bir nomdagi dorining barcha shakllari mavjud bo'lib ularning qo'llanilish usullari, organizmga yuborilish texnikasiga mo'ljallangan.

Abstract: This article is intended to discuss the form of a drug, all the forms of a drug with the same name that exist today, their methods of administration, and the technique of administration into the body.

Аннотация: Данная статья посвящена форме лекарственных веществ, всем существующим сегодня формам одноименных препаратов, способам их применения и технике введения в организм.

Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» kitobining ahamiyati shundaki, bu kitobda qadimgi Rim, Yunoniston, Eron, Hindiston va O'rta Osiyo meditsinasining farmatsevtika sohasidagi tajribalari birlashtirilgandir. Abu Ali ibn Sino o'z zamonasida qo'llanilgan dorilar ko'lam «Dori» — bu murakkab fizik-kimyoviy tizim bo'lib, u o'z ichiga dori moddasini va ularning farmatsevtik omillarini olib, dorini kam dozada qabul qilganda yuqori terapevtik ta'sir ko'rsatishiga va salbiy ta'siri kam bo'lishiga aytiladi. «Dori shakli» deb bir yoki bir nechta dori moddalariga maxsus ishlov berib va uni bemor qabul qiladigan qulay shaklga keltirilishiga aytiladi, ya'ni dori shakli bu dori preparatini tayyor holatga keltirib ishlatilishidir. Masalan: borat kislota shtanglasda turganda — dori preparatidir, eritma yoki surtma dori ko'rinishida — dori shaklidir. Dori shakli shifokor tomonidan yozilgan retsept asosida beriladi. Retsept bu shifokorning farmatsevtga yozma ravishdagi murojaatidir. Retseptda dorini qanday qabul qilish ko'rsatilgan bo'ladi. Shifokor retsept yozishda shoshmasligi va juda ehtiyot bo'lishi kerak. Retsept yozishda xatolikka yo'l qo'yilsa bu og'ir oqibatlarga hatto bemor o'limiga sabab bo'lishi mumkin. Shifokor va boshqa tibbiyot xodimlari retsept yozishda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan retsept yozish qoidalariga amal qilishlari shart.

O'rta Osiyoda farmatsevtika amaliyoti rivojlanishida 1937-yilda Toshkent farmatsevtika institutining ochilishi katta ahamiyatga ega. Institutni tamomlagan mutaxassislarining ko'pchiligi O'zbekiston FA institutlarida aholini sifatli dori-darmon bilan ta'minlash borasida xizmat qiladilar. Dori texnologiyasining rivojlanishida O'zbekiston FA institutlari bilan bir qatorda farmatsevtika instituti

mutaxassislik kafedralari, ayniqsa Dori turlari texnologiyasi kafedrası professor-o'qituvchilarining hissasi benihoya kattadir. Kafedra mudiri, birinchi farmatsiya magistri Sheblikin shu kafedrada hamma mutaxassislik fanlarini jamlashtirib, ularni tashkil etishda katta xizmat qiladi Dori moddasining ta'siri tez, oson, mukammal holatga cga bo'lgan, iste'mol uchun eng qulay shaklga keltirilgan ko'rinishiga dori preparati yoki dori deyiladi. Shunday qilib, dori deganda bir yoki bir necha dori moddasidan tashkil topgan va ma'lum bir shaklga keltirilgan holati tushuniladi. Dori preparatlarining shakli uning ta'sir darajasi bilan bog'liq omil hisoblanadi, ya'ni dori preparatlariga fizik-kimyoviy xossalari, uning ta'sir doirasi hisobga olinmay shakl berilsa, bunday dori ta'sir ko'rsatmaydi yoki kam ta'sir qiladi. Natijada dori preparati kasalga hech qanday naf bermay, bekorga sarflangan bo'ladi. Iste'mol tovarlari ichida dori alohida o'rin egallashini e'latib o'tish kerak. Dori iste'molchi tomonidan sifatini aniqlash mumkin bo'lmagan tovar hisoblanadi. Bu narsa shu dorishunoslik sohasida ishlaydigan har bir shaxsga va ayniqsa, dori texnologiyasi bilan shug'ullanadigan texnologlarga alohida mas'uliyat yuklaydi. Dori turlari texnologiyasi dori moddalaridan turli xil dori shakllari tayyorlashda amaliy va nazariy muammolar bilan shug'ullanuvchi asosiy farmatsevtik fanlardan biridir. «Texnologiya» grekcha so'z bo'lib techne- san'at, mohirlik, ustalik va logos - ta'limot, bilim demakdir. «Dori texnologiyasi» - bu to'g'ridan-to'g'ri dori tayyorlash texnikasini mohirlik, ustalik va san'atkorlik bilan o'rganish demakdir. Dori turlari texnologiyasi fanining asosiy maqsadi - har bir dori moddasini fizik va kimyoviy xossalari hisobga olgan holda uning ta'sir nuqtasi va yo'llarini o'rganib, unga to'g'ri dori shaklini berish va tayyorlash usulini o'rganishdir Bu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar turadi. I. Dori moddalaridan o'ziga xos dori preparatlarini yaratish. Har bir dori moddasiga o'ziga xos shakl berilgandagina uning ta'sir darajasi qoniqarli bo'ladi. Dori moddasidan dori preparatini tayyorlashda, albatta, uning fizik va kimyoviy xususiyatlari hisobga olinadi. Bundan tashqari, shu 18 www.ziyouz.com kutubxonasi dori moddasi tanada qanday ta'sir ko'rsatishi kerakligi, ya'ni tananing ma'lum bir qismida so'rilib, organizmga qanday ta'sir qilishi hisobga olinadi. Shundan so'ng bu moddadan dori preparati yaratish sharoitlari ishlab chiqiladi. Bu doriga qanday shakl berilishi bilan bog'liq bo'lgan sharoitlardir. Misol tariqasida penitsillinni ko'rishimiz mumkin. Penitsillin antibiotigi yangi topilgan davrda har xil dori shakli ko'rinishida ishlatilgan edi, ya'ni og'iz orqali, teri ostiga va mushak orasiga eritma sifatida qo'llangan. Penitsillin antibiotigini dori shaklida o'rgangandan so'nggina, bu antibiotik ta'siri faqat inyeksiya holida qoniqarli bo'lishi hamda og'iz orqali qabul qilish uchun uning kislotali sharoitda turg'un shakli (hozirda fenoksimetilpenitsillin) yaratilishi zarurligi aniqlangan. II. Dori shakli va dori preparati sifatini aniqlash usullarini yaratish. Har bir dori shakli va dori preparatiga

qo'yiladigan talablar bor. Masalan, hab dori shakliga qo'yiladigan talablar: og'irligi 0,1-0,5 oralig'ida bo'Mishi: tashlanganda koptok singari sakrash xususiyati; yuzasi quruq va tckisligi; parchalanish vaqti 1 soatdan oshmasligi kerak Bular hammasi hab dori shakliga qo'yiladigan talablar hisoblanadi. III. Dori sifatini aniqlashning mukammal usullarini yaratish. 1. Sifat belgilari. 2. Miqdor belgilari. IV. Dori moddalarini dori shakli tarkibidagi faol komponent hisobida o'rganish. V. Yangi fiziologik jihatdan indifferent turg'unlashtirish usullarini yaratish va o'rganish. VI. Yangi qadoqlash usullarini o'rganish. VII. Yangi sterilizatsiya usullari va saqlash muddatini uzaytirish yo'llarini o'rganish. VIII. Yosh bolalar va qariyalar uchun dori shakllarini yaratish va o'rganish. Dorilarning ishlatilishiga qarah guruhlariga bo'linishi. Organizmga yuborish yo'llariga dorilar, asosan ikki guruhga: enteral (yunoncha entcron - ichak) - me'da-ichak yo'llari orqali va parenteral - me'da-ichak yo'llaridan tashqari yo'llar orqali yuboriladigan guruhga bo'Minadi. Enteral usullarga: a) og'iz orqali - preparat (rer os); b) to'g'ri ichak orqali - rektal (per rcktum) yuborish usullari kiradi. 19 www.ziyouz.com kutubxonasi Parenteral usullarga: a) dorilarni nafas yoilari (traxeya, bronx) orqali (ingalatsiya usuli); b) teriga qoilanish; d) shilliq va seroz pardalar orqali yuborish; e) tildan (perlingval; lingua - til) va til ostidan (sublingval) yuborish; f) tcri ostiga, muskullar orasiga, qon tomirlariga, teri ostiga, orqa miya kanaliga yuborish usullari va boshqalar kiradi. Dorini qanday usulda qo'Mlanish kerakligini tanlashda shifokor juda ko'p sharoitlarni, birinchi galda bemorning ahvolini hisobga oladi. Behush yotgan bemorga dorini ichirib bo'Mmasligi shak-shubhasizdir. Bundan tashqari, dorining ta'sir etish tezligi va kuchi ham hisobga olinadi. Har bir dori moddasi qo'Mlanish usuliga qarab turlicha ta'sir ko'rsatadi, albatta. Masalan, dori to'g'ri ichak orqali yuborilsa - 7 daqiqa davomida, ichilsa - 30 daqiqa davomida so'riladi, vaholanki shu dorining o'zini venaga yuborilsa, 1-2 daqiqadan keyin o'z ta'sirini ko'rsatadi. Dorini qo'llanish usulini tanlashda shifokor shu dorining organizmning asosan bir sohasiga yoki butun organizmga ta'sir ko'rsatishini ham albatta, hisobga olishi lozim. Vuqorida keltirilgan dorivor moddalar klassifikatsiyasidan tashqari, keyingi yillarda ayrim avtorlar o'z klassifikatsiyalarini taklif etdilar (A.S. Prozorovskiy, I.A. Muravyev). Lekin bu klassifikatsiyalar to'liq ishlab chiqilmagani va sovet dorivor moddalar texnologlari tomonidan to'la-to'kis e'tirof qilinmagani uchun biz bu o'rinda ularni keltirmadik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://arm.ssuv.uz/frontend/web/books/6438e812ab16e>
2. [https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/tibbiyot/Dori%20%20turlari%20texnologiyasi%20\(K.Muhammadjonova\)](https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/tibbiyot/Dori%20%20turlari%20texnologiyasi%20(K.Muhammadjonova))
3. Shomurotovna R. Y. SOCIO-HYGIENIC STUDIES OF DISEASE, LIFESTYLE AND WORKING CONDITIONS OF MEDICAL WORKERS //Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 25-29

GASTRID KASALLIGI KELIB CHIQISH SABABLARI

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

RO'ZIYEVA FERUZA BEKNAZAR QIZI

Annotatsiya: Ushbu maqola gastrid kasalligi kelib chiqish sabablari, klinikasi davolash, bu kasallikda zamonaviy davolash usullarini qo'llash, zamonaviy texnikalardan foydalanishga muljallangan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются причины возникновения гастрита, его клиническое лечение, применение современных методов лечения при этом заболевании, а также применение современных методик.

Abstract: This article is intended to discuss the causes of gastritis, its clinical manifestations, treatment, application of modern treatment methods in this disease, and the use of modern techniques.

Gastrit yoxud oshqozon shilliq qavatining yallig'lanishi eng ko'p uchraydigan inson kasalliklaridan biridir. Statistika ko'ra, odamlarning taxminan 80-90% ularning hayoti davomida kamida bir marta kasallik epizodini boshdan kechirishgan. Keksalik davrida 70-90% gacha kishilar gastritning turli shakllaridan aziyat chekishadi. Gastritning surunkali shakli yarali kasallik, aylanishi mumkin. Gastrit — bu oshqozon shilliq qavatining yallig'lanishi bo'lib, kasallik ushbu a'zo vazifalarining buzilishiga olib keladi. Gastrit sodir bo'lganda oziq-ovqat yomon hazm qilinadi, bu esa kuchsizlik va energiya yetishmasligiga olib keladi. Gastrit, ko'pchilik kasalliklar kabi, o'tkir va surunkali shaklda kechadi. Bundan tashqari, gastrit me'da shirasi nordonligining pasaygani, normal va yuqoriligi bilan farqlanadi. Gastrit patologiyaning rivojlanishiga sababchi bo'lgan turli xil ichki va tashqi omillar bilan tavsiflanadi. Klinik jihatdan yallig'lanish shaklida (o'tkir yoki surunkali) kechadi. O'tkir yallig'lanish qisqa muddat davom etadi. Konsentratsiyalangan kislotalar, ishqorlar va boshqa kimyoviy moddalar bilan oshqozon shilliq qavatining shikastlanishi xavfli oqibatlariga (o'limga) olib kelishi mumkin.

Hozirgi kunda gastritni asr kasalligi deb atash mumkin. Undan kattalar ham, bolalar ham birdek aziyat chekmoqda.

Gastrit turlari:

- Yuzaki: faqat shilliq qavatning yallig'lanishi.
- Eroziv: shilliq qavatdagi eroziyalar.
- Atrofik: shilliq qavatning kichrayishi.

Sabablari

O'tkir gastrit ko'pincha *Helicobacter pylori* bakteriyasi keltirib chiqaradigan me'da ichki pardasining yallig'lanishi tufayli rivojlanadi. O'tkir gastrit sabablari:

- Oziq-ovqat toksik infeksiyalari (salmonellez).
- Ortiqcha ovqatlanish.
- Spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish va chekish.
- Shilliq pardaning dorilar (analgetiklar, sitostatiklar) bilan ta'sirlanishi.
- Oziq-ovqat allergiyasi.
- Stresslar, toliqish, surunkali uyqusizlik.

Surunkali gastrit ko'pincha quyidagilar tufayli paydo bo'ladi:

- O'tkir gastritni yetarli darajada davolamaslik.
- Uzoq vaqt davomida ovqatlanish tartibining buzilishi.
- O'tkir va dag'al ovqatlarni suiiste'mol qilish.
- Ovqatni yomon chaynash.

Agar siz **gastritni davolashni** bilmoqchi bo'lsangiz, davolash, shu jumladan gastritni har qanday tabiiy davolash gastrit sababiga bog'liq bo'lishini tushunishingiz kerak. Masalan, agar siz juda ko'p spirtli ichimlik ichsangiz yoki juda ko'p NSAID qabul qilsangiz, endi bu moddalarni qabul qilish sizga biroz yengillik beradi.

• **Gastrit uchun yaxshi davolash variantini** topishingiz kerak, chunki gastrit asoratlari siz xohlagan narsa emas. Shuning uchun ham aslida ishlashi isbotlangan gastrit davosini izlash kerak. Bu gastritdan qutulish uchun e'tiborga olishni xohlashingiz mumkin bo'lgan bir nechta turli xil variantlar.

• Yallig'lanishga qarshi dieta

• Gastrit asoratlari **sizning dietangiz** tufayli bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham gastrit muammolaringizga sabab bo'layotgan aniq oziq-ovqatni topish kerak. Bu sizga gastritdan qutulishning qandaydir turini taklif qilishi kerak. Bu sizga oziq-ovqatdan butunlay qochishga yoki iste'molni kamaytirishga yordam beradi.

Bu, albatta, yordam berishi mumkin bo'lsa-da, muammolaringizga nima sabab bo'lishi mumkinligini aniqlash uchun juda ko'p vaqt kerak bo'ladi va ba'zi hollarda muammoni keltirib chiqarayotgan narsalarni qisqartirish butunlay mumkin bo'lmasligi mumkin. Ayniqsa, gastritni tabiiy davolash bilan birgalikda bu yaxshi variant bo'lishi mumkin.

• Kislota ishlab chiqarishni to'sib qo'yadi dori-darmonlar

• Agar tanangiz kislotadan ortiq hosil qilmayotganiga ishonch hosil qilmoqchi bo'lsangiz, gastrit alomatlari bilan bog'liq biroz yengillik berish uchun ushbu turli **dori-darmonlarni** qabul qilishingiz mumkin. Biroq, siz muammo bilan faol shug'ullanmayotganingizni tushunishingiz kerak, siz faqat (vaqtincha) alomatlarni davolashdasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://med24.uz/uz/bolezni/gastrit>
2. <https://mymedic.uz/kasalliklar/gastroenterologiya/gastrit/>
3. <https://uz.yourwebdoc.com/gastritis.php>

MAVSUMIY GRIPP VERUSLARI

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

**NORBOYEVA SHAHLO SHUXRATOVNA
SHUKUROVA YULDUZ QUCHQOR QIZI**

Annotatsiya: Ushbu maqola mavsumiy gripp verusli kasalligi kelib chiqish sabablari, klinikasi davolash, bu kasallikda zamonaviy davolash usullarini qo'llash, zamonaviy texnikalardan foydalanishga muljallangan.

Аннотация: Целью данной статьи является обсуждение причин возникновения сезонного вирусного заболевания гриппом, его клинического лечения, применения современных методов лечения при этом заболевании, а также применения современных методик.

Abstract: This article is intended to discuss the causes of seasonal influenza, clinical manifestations, treatment, application of modern treatment methods in this disease, and the use of modern techniques.

Hozirda aksariyat mamlakatlar qatori yurtimizda ham mavsumiy kasalliklar tarqalishi ko'paygan. Ayniqsa, bolalarda bu jarayon biroz og'ir kechmoqda.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi raisi birinchi o'rinbosari Nurmat Atabekov O'zbekistonda o'tkir respirator kasalliklar tarqalishi bilan bog'liq epidemiologik vaziyat haqida ma'lumot berdi.

«Gap shundaki, biz o'tkir respirator infeksiyalar tarqalishi zanjirini uzishga harakat qilishimiz kerak. Kasallik tarqalishida uch muhim bo'g'in bor: kasallik manbai, yuqish yo'li, yuqtirishga moyil organizm.

Agar kasallangan bolalarni maktabga, bog'chaga, jamoat joylariga yuboraversak, ular boshqalarga infeksiya yuqtirishda davom etadi.

Har birimiz o'tkir respirator kasalliklar, xususan, grippni yuqtirishga moyilmiz. Shuning uchun ham ota-onalarga kasallik belgilari bo'lgan farzandlarini bog'cha va maktablarga, oliy ta'lim muassasalariga yubormaslikni maslahat beramiz. Bunday paytda shifokor ko'rsatmasiga asosan, uy sharoitida zarur muolajalarni olib borish maqsadga muvofiq», – deydi mutaxassis.

Atabekov, shuningdek, bugungi kunda barcha yuqumli kasalliklar shifoxonalarida bemorlar uchun o'rin-joy va zarur dori-darmonlar zaxirasi yaratilganini, aholi orasida mavsumiy gripp haqida «yangi pandemiya» degan mish-mishlar asossiz ekanini ta'kidlaydi.

«Bu, hatto epidemiya ham emas. O'tkir respirator kasalliklar tarqalishi poytaxtimizda va yurtimizning ayrim hududlarida ko'proq qayd etilayotgani kasallik

tarqalishi epidemik bo'sag'aga yetganiga asos bo'la olmaydi. Shu sababdan ham o'quv muassasalarida ta'lim jarayonini to'xtatishga yetarli asos ko'rmayapmiz», – deydi Nurmat Atabekov.

Mutaxassisning tavsiya etishicha, bunday vaziyatda bemorlarni alohidalash, ularni jamoat joylaridan uzoqda tutish lozim. Shu bilan birga bemorlar muloqot chog'ida doim tibbiy niqobda bo'lishlari, ijtimoiy masofa saqlashlari, shaxsiy gigiyenaga qat'iy amal qilishlari shart.

Gripp – keng tarqalgan, xavfli va og'ir yuqumli kasallik bo'lib, havo tomchilari orqali yuqadi. Bunga gripp virusi sabab bo'ladi. Gripp bilan ommaviy kasallanishlar davriy ravishda sodir bo'lib, epidemiyaga aylanadi.

Kelib chiqish sabablari

Kasallik burun, tomoq va o'pkaning shikastlanishi bilan tavsiflanadi. Gripp ko'pincha qish faslida tarqaladi. Gripping asosiy sabablari: kasallikning virusli qozg'atuvchilari mavjud bo'lgan havo orqali yuqishi; bemor bilan aloqada bo'lgan narsalar orqali yuqish.

Kasallik belgilari

Gripp quyidagi belgilar bilan namoyon bo'ladi: yuqori harorat (40 darajagacha); bosh og'rig'i; bo'g'imlardagi og'riqlar; kuchli terlash; tomoq og'rig'i; ko'krak qismida og'riq; burun bitishi; burun shilliq qavatida quruqlik; yo'tal. Agar gripping og'ir shakli bo'lsa: o'qchish va qusish; burundan qon ketishi; hushdan ketish; alahsirash.

Juda ko'p suyuqliklar ichirish, organizmni suv yuqotishini oldini, yo'talni namlandi va toxinlarni tez ajralib chiqishiga yordam beradi. Vitaminlar va mineral bini minatmalar birlash maqsadga muvofiq. Katta yoshdagi bolalarga mineral suvini ular kerak bo'ladi. Isitma tushuruvchi dorilar - berish maqsadga muvofiqdir. Antihistamine preparatlarini berish - URVKda burun bitishini kamaytiradi. Virusli kasalliklarni davolash uchun kompleks dorilar – "AntiGrippin" bolalar uchun - tarkibida kerakli komponentlar bo'lib, bolalarni qabul qilishi uchun - yoki va mazalidir. Virusga qarshi preparatlarni (rimantadine) bolalarga berish berish mumkin emas, chunki undan bolaga foydadan ko'ra zarari ko'prok bo'ladi. Yoki aspirin – isitmasini tushirish maqsadida berish mumkin emas, chunki u tomir devorlarini utkazuvchanligini susaitiradi. Virusli kasalliklarni antibiotiklar bilan davolash vrach maslahatisiz mumkin emas. Antibiotikum bakterilarni o'ldiradi, vironni emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://med24.uz/uz/bolezni/gripp>
2. <https://xabar.uz/uz/post/mavsumiy-gripp-sabab-talim-jarayonini-toxtatishga-asos>
3. <https://bionurmedservis.uz/gripp-utkir-respirator-virusli-kasalliklar>

APENDITSET BEMORLAR PARVARISHI

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

YULDOSHEVA DILDORA RUSTAMOVNA

PO‘LATOVA DILSHODA AKMAL QIZI

Annotatsiya: Ushbu maqola apenditset kasalligi kelib chiqish sabablari , klinikasi davolash, bu kasallikda zamonaviy davolash usullarini qo'llash , zamonaviy texnikalardan foydalanishga muljallangan .

Abstract: This article is intended to discuss the causes of appendicitis, its clinical manifestations, treatment, application of modern treatment methods in this disease, and the use of modern techniques.

Аннотация: В данной статье рассматриваются причины возникновения аппендицита, его клиническое лечение, применение современных методов лечения при этом заболевании, а также использование современных методик.

Appenditsit – bu ko'richak qo'shimchasidagi yallig'lanish jarayoni (chuvalchangsimon o'simta yoki appendiks). Kasallik o'tkir yoki surunkali bo'lishi mumkin.

Statistikaga ko'ra, appenditsit qorin bo'shlig'ining boshqa kasalliklariga qaraganda ancha keng tarqalgan. Shunday qilib, u taxminan 89% ni tashkil qiladi. U erkaklar va ayollarda bir xil darajada uchraydi. Ta'kidlanishicha, 10-30 yoshdagi odamlarda ko'richak qo'shimchasining yallig'lanishi boshqalarga qaraganda ko'proq uchraydi.

Appendiks - bu ko'richakning boshlang'ich (rivojlanmagan) qo'shimcha qismi. Ko'rinishidan u bir tomondan ichak bo'shlig'iga kichik huni shaklidagi teshik orqali bog'langan cho'zinchoq ingichka naychaga (uzunligi 5-15 sm) o'xshaydi. Bundan tashqari, qo'shimchada tutqich mavjud bo'lib, uni mahkamlaydi yoki harakatga keltiradi.

Inson tanasiga bu rivojlanmagan qo'shimcha nima uchun kerakligi hali ham aniq emas. U zararli moddalarni ushlab qoladi, shilliq sekretsini chiqaradi va sog'lom ichak mikroflorasini ta'minlaydi.

Apenditsit o'tkir yoki surunkali bo'ladi. Birinchi holda, u quyidagicha tasniflanadi:

- o'tkir (oddiy) kataral. Qo'shimchada limfa va qonning turg'unligi belgilari bilan namoyon bo'ladi. Bu o'simtaning shilliq qavatida yiringli yallig'lanish jarayoniga olib kelishi mumkin. Natijada, ikkinchisi haddan tashqari qon bilan to'ldirilganligi sababli

shishib ketganday, hajmi sezilarli darajada oshadi. Agar oddiy o'tkir appenditsit bilan og'rigan bemorga shoshilinch jarrohlik yordami ko'rsatilmasa, kasallik halokatli shaklga o'tishi mumkin;

- o'tkir destruktiv appenditsit:
 - o flegmonoz— yarali (qo'shimchaning membranalari yaralanadi),
 - o flegmonoz (qo'shimchaning devorlari leykotsitik infiltrat bilan to'liq to'ldiriladi, yiring chiqadi);
 - o apostematoz (yallig'langan jarayonda ko'p miqdordagi mikroabsesslar paydo bo'ladi);
 - o gangrenoz (qo'shimchada sodir bo'ladigan o'z vaqtida bloklanmagan halokatli reaksiyalar natijasida yuzaga keladigan eng rivojlangan shakl).

Ko'richak qo'shimchasining surunkali yallig'lanishi 3 xil bo'ladi:

- rezidual;
- birlamchi surunkali;
- retsidivlashtiruvchi.

Bu appendiksning atrofiyasiga, appendiks devorlarida granulyatsiya to'qimalarining o'sishiga olib keladi. Appendiks tuynugida seroz suyuqlik to'planib qolsa, kista paydo bo'ladi.

Appenditsitning sabablari

Appendiks yallig'lanishining aniq sabablari topilmagan. Kasallik nomlangan segmentda yashovchi bakterial mikroorganizmlar tomonidan qo'zg'atiladi, deb ishoniladi. Agar odam sog'lom bo'lsa, ular uning sog'lig'iga zarar etkaza olmaydi, chunki ular limfoid to'qima va shilliq pardalarga kira olmaydi.

Ammo immunitetning pasayishi bilan bu mikroorganizmlar membranalarda tarqala boshlaydi, tez progressiv yallig'lanish jarayoni paydo bo'ladi.

Shuningdek, shifokorlar appenditsitning bo'lishi mumkin bo'lgan sabablari deb quyidagilarni aytishadi:

- yaxshi sifatli/yomon sifatli neoplazma, axlat to'planishi, limfa to'qimalarining patologik o'sishi. Gap shundaki, chuvalchangsimon o'simta doimiy ravishda sekresiya chiqaradi. Agar u tiqilib qolsa, sekresiya chiqishi imkonsiz bo'lib qoladi. U asta-sekin qo'shimchaning devorlarini cho'zib, to'plana boshlaydi. Natijada shilliq qavat yallig'lanadi;
- sog'lom ovqatlanish qoidalariga e'tibor bermaslik. Agar meva va sabzavotlar kundalik ratsionga kiritilmagan bo'lsa, o'simlik tolalari tanaga kirmaydi, ichak devorlari yomon qisqaradi. Turib qolgan axlat toshlarning paydo bo'lishiga olib

kelishi mumkin, ulardan biri appendiksdan chiqadigan shilimshiqning tabiiy chiqib ketish jarayonini blokirovka qilishga olib kelishi mumkin;

- qon aylanishi bilan bog'liq muammolar. Appendiksni qon bilan ta'minlaydigan arteriyalar trombnini to'sib qo'yishi mumkin. Keyin uning devorlari kerakli ozuqa moddalarini olishni to'xtatadi va yallig'lanish kelib chiqadi;

- allergiya. Chuvalchang simon o'simta immunitet elementidir, chunki u limfoid to'qima tomonidan hosil bo'ladi. Immunitet hujayralarining buzilishi tufayli unda allergik reaksiyalar rivojlanadi;

- tez-tez ich qotishi. Doimiy ich qotishida axlat ichak orqali juda sekin harakatlanadi, tiqiladi va ko'pincha appendiksga tushib qoladi.

- Appenditsit ichakning pastki qismida joylashgan chuvalchangsimon o'simta — appendiksning yallig'lanishidir. Odatda appendiks diametri 7-10 mm va uzunligi 50-150 mm bo'lgan kichik naycha hisoblanadi. U ko'richakdan boshlanadi, asta-sekin torayib boradi va uning chiqib ketish yo'li yo'q.

- Appendiksning vazifasi aniq emas. Avvalroq, appendiks oddiy rudiment sifatida qaralardi va odamlarning asosan o'simliklar bilan oziqlangan uzoq hayvon ajdodlaridan qolgan va hozirda keraksiz deb hisoblanardi. Hozirgi vaqtga kelib esa u endokrin va immunitet jarayonlarida, shuningdek ichak mikroflorasining shakllanishida muhim rol o'ynashini isbotlovchi jiddiy sabablar mavjud. Appendiksi olib tashlangan kishilar ichakda yetarli miqdordagi foydali mikroorganizmlar bilan bog'liq muammolarga duchor bo'lganligi isbotlangan. Biroq, appendiks organizm uchun hayotiy zarur organlar qatoridan emas.

- oida tariqasida appendiksning yallig'lanishi o'tkir tabiatlidir. Kasallik natijasida o'simtada yiring to'planib qoladi va o'simtaning torligi sabab oson chiqib keta olmaydi. Appendiks kattalashadi va og'riy boshlaydi. Oxir-oqibat, bu appendiks devorining yorilishi va yiringni qorin bo'shlig'iga chiqishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, yuqori ehtimollik bilan o'linga olib kelishi mumkin bo'lgan qorin bo'shlig'ida o'tkir peritonit, sepsis, yoki abstsessga sabab bo'ladi. Eng jiddiy shikastlanish **pileflebit** — bu jigar shikastlanishiga, darvoza tomirning yallig'lanishiga olib keladi, o'lim darajasi juda yuqori.

- Kasallik juda tez kechadi va odatda 2-4 kundan ortiq davom etadi, kamdan-kam hollarda bir hafta. O'tkir appenditsitning o'z-o'zidan shifo topishi holatlari kam. Ba'zan zararlangan appendiks atrofida atrofdagi to'qimalardan himoya infiltrati rivojlanishi mumkin, ammo bu shakllanma ham abstsesslarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun kasallik jarrohlik aralashuvni va tibbiy davolanishni talab qiladi. Kasallikning o'z vaqtida davolashi bilan yakun ijobiy bo'ladi.

- Ba'zida o'tkir appenditsit bilan og'rigan bemorlarda surunkali appenditsit paydo bo'ladi. Ushbu holatning namoyon bo'lishi o'tkir kasallikdan 100 marta kamroq. Odatda, jarrohlik davolash talab etilmaydi.

- O'tkir appenditsit oddiy (**kataral**) va asoratlar bilan kechuvchi **destruktiv** shakllarga bo'linadi. To'g'ri davolashsiz, oddiy appenditsit deyarli har doim destruktiv appendiksga aylanadi.

- Appenditsit odatda jarrohlik yo'li bilan davolanadi. Bu appenditsiyani olib tashlashdan (appendektomiya operatsiyasidan) iborat. Ba'zi hollarda antibiotiklar bilan davolash ham qo'shiladi. Ba'zida appendiksni olib tashlamasdan, konservativ davolash mumkin va bu holatda antibiotiklar buyuriladi. Qoida tariqasida bunday choralar operatsiyaga qarshi har qanday ko'rsatma mavjud bo'lgan hollarda qo'llaniladi.

- Appendiksni olib tashlash jarayoni an'anaviy usulda, ochiq tirqish orqali yoki laparoskopik usul bilan amalga oshiriladi. Operatsiyadan keyingi dastlabki 12 soat ichida yotoqda dam olish va ovqatlanishdan saqlanish kerak. Tiklanish davrida kasallikning ta'sirini antibiotiklar bilan davolash mumkin. Tiklanish davrining davomiyligi kasallikning qaysi bosqichida operatsiya amalga oshirilganligiga bog'liq va odatda 1-2 hafta davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://med24.uz/uz/bolezni/appenditsit>
2. <https://mymedic.uz/kasalliklar/gastroenterologiya/appenditsit/>
3. <https://med24.uz/uz/bolezni/tiflit>

KEKSALAR VA HARAKATSIZ BEMORLARDA YOTOQ YARALAR PARVARISHI

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi
SAYFIYEVA NILUFAR ASLIYEVNA

Annotatsiya: Keksalar va harakatsiz bemorlarda yotoq yaralar paydo bo'lish sabablari, ularni vaqtida bartaraf etish chora tadbirlari va bunday holatlar yuzaga kelganda hamshiralardan talab qilinadigan amalyotlarga mo'ljallangan.

Аннотация: О причинах пролежней у пожилых и малоподвижных больных, мерах по их своевременному устранению. Он предназначен для операций, необходимых медсестрам в таких ситуациях.

Abstract: About the causes of bed sores in the elderly and immobile patients, measures to eliminate them in a timely manner. It is intended for the actions required of nurses when such situations occur.

Terining o'ziga xos funksiyalarni bajarib turishi sog'liqning eng muhim sharti hisoblanadi. Teri o'z funksiyalarini to'g'ri bajarishi uchun badan terisini ozoda tutish va turli zararlanishlardan saqlash zarur. Kasallik odam organizmining barcha a'zolari va tizimlari faoliyatini izdan chiqaradi. Kasal holdagi organizm teriga nisbatan ortiqcha talablar qo'yadi, shunga ko'ra bemor ozodalikka rioya qilishining ahamiyati ortadi. Badan terisini yog' va ter bezlarining ajratmalari, muguz tangachalar, mikroblar va chang-g'uborlar ifloslantiradi. Международный научный журнал № 6 (100), часть 1 «Новости образования: исследование в XXI веке» январь, 2023 г 116 Statsionarda yotgan bemorlar haftada bir marta gigiyenik vanna yoki dushda cho'miltiriladi. Vanna yoki dush tavsiya etilmaydigan hollarda bemor badani har kuni nam sochiq bilan artiladi. Yuz va bo'yinni har kuni yuvib turish lozim. Agar bemorga turish mumkin bo'lmasa, u holda hamshira va sanitarka uni bulutcha (gubka) vositasida ko'zadan suv quyib yuvintiradi. Oyoqlarni har kuni kechqurun iliq suv bilan sovunlab yuvish zarur. Yotadigan tartibdagi bemor oyoqlarini (karavotga tog'ora qo'yib) haftasiga 2–3 marta yuvib turadi. Qo'ltiq sohalari, chov burmalari, ko'krak ostidagi teri burmalari, ayniqsa ko'p terlaydigan va semiz odamlarda tez-tez yuvib turishni talab qiladi. Aks holda, bu sohalarning terisi bichiladi, bunda terining himoya qobiliyati pasayadi va mikroblar namlanib turadigan teri orqali organizmga kirib kasallik paydo bo'lishiga imkon yaraladi. Yotoq yara – tananing ma'lum bir qismi doimiy bosim ostida bo'lib, shu yerda qon aylanishining buzilishi natijasida rivojlanuvchi terining yarali – nekrotik zararlanishi hisoblanadi. Uzoq vaqt chalqancha yotishga majbur bo'lgan ahvoli og'ir bemorlarda aksari yotoq yaralar

paydo bo'ladi. Yotoq yaralar eng ko'p paydo bo'ladigan soha dumg'azadir. Kamroq hollarda ular kurak, tovon, ensa, tirsak, quymich do'mboqlari va suyak bilan to'shak orasida yumshoq to'qimalar uzoq vaqt bosilib turadigan sohalarda paydo bo'ladi. Terining shu sohalariga bosim tushishi, qon aylanishining kamayishiga va to'qimalarning qon bilan yetarli darajada ta'minlanmasligiga olib keladi.

Yotoq yaralarning paydo bo'lishiga qoq suyak bo'lib oriqlab ketish, yurak faoliyati susayib, qon aylanishining yetishmay qolishi, markaziy nerv sistemasi kasalliklari (orqa miyaning travmatik shikastlanishi), shuningdek qandli diabet sabab bo'ladi. Markaziy nerv tizimi kasalliklarida paydo bo'ladigan yotoq yaralar juda tez, xastalik boshlangandan keyin bir necha soat ichida avj oladi, qandli diabetga uchragan bemorlardagi yotoq yaralar esa juda uzoq davom etadi va ularni davolash qiyin bo'ladi. Yotoq yaralar asta-sekin, ko'pincha bemorning o'zi ham sezmaydigan holda avj oladi. Ular quruq (mumifikatsiya) va infeksiya tushishi natijasida yiringli yoki irigan bo'ladi. Avvaliga teri qizarib, so'ngra yiring bilan to'lgan pufakchalar yuzaga keladi. Ular davolansa, yoriladi, bunda terining so'rg'ichli qavati ochilib qolib, rangi asta-sekin xiralashadi va jonsizlanish vaqtiga kelib, deyarli qorayadi. O'lgan to'qimalar ko'chib tushadi va yotoq yaraning ichkarisida aksariyat suyak ko'rinib qoladi. Darmonsiz bemorlarda yotoq yaralarning tez avj olishi umuman qon zararlanishiga va ba'zan o'limga sabab bo'ladi. Bo'limga yotoq yaralari ko'payib ketgan bemor yotqizilgan bo'lsa, shifokor ko'rsatmalari bo'yicha mahalliy va umumiy ta'sir qiluvchi vositalar bilan alohida davolash talab etiladi. Davolash. Pufakchalar paydo bo'lganda ularga brilliant yashilining spirtidagi eritmasini surtish, so'ngra quruq bog'lam qo'yish lozim. Nekroz chegaralangandan so'ng nekrozlangan to'qimalar olib tashlanadi va jarohat 1% li kaliy permanganat eritmasiga botirilgan steril salftka bilan berkitiladi. Bog'lam kuniga 2–3 marta yangilanadi. Jarohat tuzala

Международный научный журнал № 6 (100), часть 1 «Новости образования: исследование в XXI веке» январь, 2023 г 117 boshlaganda Vishnevskiy malhami, peruan va paxta moyining aralashmasi, sintomitsin emulsiyasi va boshqa malhamli bog'lamlarga o'tiladi. Shifoxonada yotgan bemorlarda yotoq yaralar paydo bo'lishi, parvarishning yomonligidan darak beruvchi dalildir. Yotoq yaralari har qanday yoshdagi odamlarda paydo bo'lishi mumkin, agar ular tananing holatini mustaqil ravishda o'zgartira olmasalar. Masalan, to'shakda yoki kreslo-kachalkaga mixlanib qolgan bo'lsalar. Yotoq yaralarini davolash va oldini olish kasal odamga g'amxo'rlik qilish bo'yicha kompleksli chora-tadbirlardir. Yotoq yaralarini davolashdan ko'ra ularni oldini olish osonroq.

Teri muhim organ bo'lib, uning yordamida inson tanasining yaxlitligi, tananing ichki muhitining barqarorligi saqlanib qoladi. Teri epidermis va terining o'zi - dermisdan iborat bo'lib, unda qon tomirlari, yog' va ter bezlari, asab tugunlari mavjud. Teri orqali kislorod asosan epidermis hujayralarini yetkazib berishga o'tadi. Terini himoya qilish uchun uni toza, elastik va uzluksiz qon bilan ta'minlash kerak. Agar ushbu shartlardan biri yoki bir nechitasi bajarilmasa, turli xil teri kasalliklari paydo bo'lishi mumkin. Yotoq yaralari inson salomatligi uchun terining normal ishlashi uchun eng xavfli kasalliklardan biridir.

Yotoq yaralarini davolash va oldini olish kasal odamga g'amxo'rlik qilish bo'yicha kompleksli chora-tadbirlardir. Yotoq yaralarini davolashdan ko'ra ularni oldini olish osonroq.

Yotoq yaralari paydo bo'lishining oldini olishning eng yaxshi usullari bu tananing holatini tez-tez o'zgartirish va terini ehtiyotkorlik bilan parvarish qilishdir. Yotoqda yotgan bemorlarni har 2 soatda aylantirish yaxshidir. Kasallarga g'amxo'rlik qiluvchilar qizarish yoki rang o'zgarishining dastlabki belgilarini ko'rish uchun har kuni terini diqqat bilan tekshirishlari kerak. Oddiy teriga xos bo'lmagan har qanday pigmentatsiya yotish holatini o'zgartirish vaqti kelganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, sirt to'qimalariga yumshoq massaj qilish tavsiya etiladi. Bu terida va teri osti yog'ida qon va limfa turg'unligini oldini oladi.

Yotgan bemorni to'g'ri parvarish qilishning quyidagi oddiy qoidalari, yotoq yaralarini keltirib chiqaruvchi terining haddan tashqari ishqalanishini qo'zg'atmaslikka yordam beradi:

- Bemorni bir o'zingiz tortib olmang.
- Siz bemorning ostidan ichki kiyimlarni tortib ololmaysiz, ayniqsa ho'l bo'lsa
- Bemor ostida tuvakni silkitmaslik kerak, avval uni ko'tarish kerak.
- Zaif bemorlarga o'tirish yoki yarim o'tirish holatini berishga harakat qilish tavsiya etilmaydi. Ularning mushaklarning faolligi bu holatda qolish uchun yetarli emas va ular asta-sekin siljishni boshlaydilar. Oyoqlarda to'xtash uchun har qanday moslama sirpanishning oldini oladi.

Yotoq yaralarini oldini olish uchun yotoq yaralariga qarshi matraslardan foydalanish yaxshi. Ularning tuzlishi bemorning vazniga qarab matrasdagi bosimni tartibga solish orqali terining qo'llab-quvvatlovchi yuzasi maydonini ko'paytirishga imkon beradi. Muntazam, optimal ravishda har 5 daqiqada bir marta, to'shakning turli qismlarida bosimning o'zgarishi, shuningdek, to'shak bilan aloqa qiladigan terining turli qismlarida bosimning o'zgarishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. file:///C:/Users/Dilmurod/Downloads/Xasanova+Fazilat+Muhammadovna
2. <https://medelement.com/uz/materials/534897641634808245/fighting-bedsore-the-basics-of-bedridden-care-uz>

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	HUQUQIY MADANIYAT- JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI	3
2	KOMPYUTER TARMOQLARIDA ZARARKUNANDA TRAFIKNI FILTRLASH	7
3	IDROKNING XUSUSIYATLARI VA PATOLOGIYASI	13
4	NOGIRONLIKKA EGA BO'LGAN INSONLARNI HIMOYA QILISHNING XORIJIY TAJRIBASI	17
5	ФОРМИРОВАНИЕ У ДОШКОЛЬНИКОВ НАВЫКОВ СОТРУДНИЧЕСТВА ПОСРЕДСТВОМ КВЕСТ-ИГР, КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА	23
6	CHARACTER OF NATASHA ROSTOVA IN THE NOVEL "WAR AND PEACE" BY LEO TOLSTOY	28
7	LANGUAGE TEACHING AND MOTIVATION: A PSYCHOLOGICAL PERSPECTIVE	33
8	THE ROLE OF PEER ASSESSMENT IN LANGUAGE PROFICIENCY DEVELOPMENT	37
9	PROFILAKTIKA INSPEKTORINING TURMUSHDAN AJRASHIB KELGAN AYOLLAR BILAN ISHLASHDA XOTIN-QIZLAR FAOLI BILAN HAMKORLIGI YUZASIDAN AMALGA OSHIRILADIGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNING HUQUQIY ASOSLARI	42
10	KO'KRAK BEZI SARATONI	45
11	ЧЕКИШ ВА УНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШДА МОТИВАЦИОН АЛГОРИТМ ТУЗИШ	50
12	SEMIZLIK ASR MUAMMOSI	54
13	KEKSALIK ASTENIYASI: BIRLAMCHI TIBBIY YORDAM SHIFOKORI BU HAQDA NIMANI BILISHI KERAK?	58
14	ПРОБЛЕМА ВРОЖДЕННОЙ АТРЕЗИИ ХОАН В ПЕДИАТРИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ	64
15	PROBIOTIKLARNING IMMUNOMODULYATSION TA'SIRI: BOLALARDA O'TKIR RESPIRATORLI INFEKSIYALARNING OLDINI OLISH IMKONIYATLARI.	74
16	TURLI ICHAK KASALLIKLARI	80
17	DIZINFIKSION NAZORAT MUHIMLIGI	83
18	REVMATIZM QANDAY KASALLIK?	86
19	ЛИХОРАДКА ДЕНГЕ (КОСТОЛОМНАЯ ЛИХОРАДКА; ЛИХОРАДКА ДЕНДИ)	89
20	РАСПРОСТРАНЕННЫЕ ГЕЛЬМИНТОЗЫ В ПРАКТИКЕ ПЕДИАТРА.	93
21	ЛАБИАЛЬНЫЙ ГЕРПЕС У ВЗРОСЛЫХ	101
22	KOSMETOLOGIYADA MAHALLIY ANTISEPTIK VOSITALAR	110
23	MUSIQA TERAPIYASINING ODAM RUHIYATIGA IJOBIY TA'SIRI	116

24	ALERGIK KASALLIKLARDA QO'LLANILADIGAN MODDALAR	122
25	MIYAGA QON QUYILISHI	125
26	ANIMIYA KASALLIGINING KELIB CHIQISHI	128
27	VITAMIN YETISHMOVCHILIGI	132
28	ENDOMETRIOZ KELIB CHIQISHI VA ASORATLARI	135
29	DORI MODDALARINI ORGANIZIMGA YUBORISH	139
30	NARKOZ PAYDO QILUVCHI MODDALAR	143
31	BUYRAK KO'CHIRIB O'TKAZISH AMALIYOTI	146
32	XOTIRA YUQOLISHI SABABLARI	151
33	KO'ZLARNI DAVOLASHDA LAZERDAN FOYDALANISH	154
34	KO'ZLARNI DAVOLASHDA LAZERDAN FOYDALANISH	157
35	DORIVOR O'SIMLIKLAR FARMASEVTIKADA QO'LLANISHI	162
36	DORI MODDALAR SHAKLI	166
37	GASTRID KASALLIGI KELIB CHIQISH SABABLARI	169
38	MAVSUMIY GRIPP VERUSLARI	172
39	APENDITSET BEMORLAR PARVARISHI	174
40	KEKSALAR VA HAKAKATSIZ BEMORLARDA YOTOQ YARALAR PARVARISHI	178

Напоминание! — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.


Главный редактор:
Семёнов Владимир Львович

Помощник редактора:
Абдурахманов Бобуржон

Подготовитель к публикации:
Халиков Тохирджон Шавкатжонович

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2024-г.





OPEN  ACCESS

